

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
NIZOMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI

**«CHOLG‘U ANSAMBLI»**

*fanidan 5141000 «Musiqiy ta‘lim» bakalavriat yo‘nalishi  
talabalari uchun mustaqil ishlarni bajarish bo‘yicha  
o‘quv qo‘llanma*

«Musiqqa» nashriyoti  
Toshkent  
2011

***Tuzuvchilar:***

SH.N.RAHIMOV – TDPU dotsenti  
A.ASAIDOV – TVDPI «Musiqiy ta’lim» kafedrası mudiri

***Taqrizchilar:***

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat  
Pedagogika Universiteti pedagogika fanlari doktori,  
professor  
X.N.NURMATOV

Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat  
Madaniyat Instituti professori  
A.UMAROV

ISBN 978-9943-307-65-7

© «Musiq» nashriyoti, 2011.  
© Sh.Rahimov, Sh.Yusupov, 2011.

---

---

## SO‘Z BOSHI

Yosh avlodni milliy istiqlol g‘oyalari ruhida tarbiyalash, qadriyatlarimizni va milliy musiqa madaniyatimizni har qachongidan chuqurroq o‘rganish, hamda xalqimizning o‘zligini anglash, o‘z urf-odatlarini saqlay bilishi, ularni tiklab, avaylab, e‘zozlab, yangi o‘sib kelayotgan yosh avlodga yetkazib berish bugungi kunning muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Yosh avlodni milliy-ahloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning muhim vositalaridan biri sifatida ularni har taraflama estetik badiiy did sohibi bo‘lib yetishishida milliy musiqa merosining cholg‘uchilik san‘ati orqali tanishtirib borish alohida ahamiyat kasb etadi.

Dutor nafaqat O‘zbekistonda, O‘rta Osiyo xalqlari, hususan tojik, uyg‘ur, qoraqalpoq, turkman xalqlarida ham keng tarqalgan. Bu cholg‘uda milliy kuylar bilan bir qatorda, barcha chet el kompozitorlari tomonidan yozilgan har jihatdan murakkab asarlarni ham moxirona ijro etish mumkin.

O‘zbekistonda taniqli sozandalardan Orif Qosimov, Turg‘un Alimatov, Abdusamad Ilyosov, G‘ulom Qo‘chqorov, Boqijon Rahimjonov, Abdurahim Hamidov, Ro‘zibi Hojiyeva, Sulton Qosimov singari mohir sozandalar dutorni xalqimiz ichida yanada sevimli va ommaviy bo‘lishida katta hissa qo‘shdilar.

Dutorda asarlarni mustaqil o‘rganish va ularni ongli ravishda o‘zlashtirish, ijro etish sozanda uchun tanlagan kasbini sevishi, tinimsiz mehnat qilishi zarur bo‘ladi.

Bu darslik talaba yoshlarning badiiy repertuarlarini yanada boyitadi va ijrochilik mahoratini oshirishga yordam beradi, degan umiddamiz.

## Чолғу ансамбли ўқув фанининг мақсад вазифалари

### МАҚСАД


Мақсад - талабларнинг ўқув жараёнида олган билимларини ансамбл сифатида мужасамлаштириш, кейинги ўқитувчилар фаолиятида чолғу асбоблари ансамбллари ташкил қилиш йўлларини, талаба ва ўқувчиларнинг ўқишдан бўш вақтларини тўғри ташкил қилиш, маданий меросга тўғри ендашишга уларнинг тафаккур ва хиссиётларини ривожлантиб бориб, гоаявий - бадиий ва маънавий тарбиясига ижобий таъсир кўрсати

Ўқитувчиларда мақсадга муҳаббат ва қизиқиш уйғотиш, муסיқий қобилиятини ўстириш, ўқитувчилар миллий муסיқий меросимизга ва у орқали Ватанга муҳаббат, садоқат хиссини тарбиялаш. Ўқувчиларнинг бадиий ижодкорлик қобилиятини ўстириш. Уларнинг ҳаётига, ўқишга, меҳнатга ва гузалликка интилиш қобилиятини, атроф-муҳитини идрок қилиш хусусиятлари, ривожлантириш.

## Фан бўйича талабаларнинг билим кўникма ва малакасига қўйиладиган талаблар

«Чолғу ансамбли» фанини ўзлаштириш жараёнида талабалар:

- Чолғу ансамбли фанида ижрочилик санъатининг яратилиш тарихи, дуэт, трио, кuartет, квинтет ва жамоа бўлиб ижро этишнинг назарий тамойиллари, ижро диапазони уларнинг хусусиятларини **билиши керак**;
- Чолғу ансамблида ижро этиш жараёни репертуарларини оптимал танлаш, ижро техникаси ва ижро хусусиятига кўра асарларни ажратиб олиш **кўникмаларига эга бўлиши керак**;
- Чолғу ансамбли фани бўйича талабалар танлаган ансамбл асарларини қондалар асосида ижро этиш хусусиятига кўра фалш ижросига йўл қўйилмасдан алоҳида ишлаш ва оркестрларга раҳбарлик қилиб бошқара олиш **малакаларига эга бўлиши керак**.



*Созанда ижро этишдан олдин бармоқларини юмшатиш ва ижро ҳолатини мослаш мақсадида турли машқлар, гаммаллар ижро этиш тавсия этилади.*

Ўзбек халқ куйи- Қашқарча  
Ўзбек халқ куйи- Фарғонача

М.Левиёв- Хайратли қиз  
Нурматов- Хоразм халқ куйи

Ўзбек халқ к- Андйжон полт  
М.Мирзоев - Шодлик

Н.Хасанов- Дуторим  
М.Отажонов- Ўзбекистон онажоним

### **Мустақил ишни ташкил этишнг шакли ва мазмуни**

Мустақил фикрлаш борасида ўқувчи ўз ўқитувчисининг кўрсатма ва фикрларига кўр-кўрона эргашиб бўйсунishi эмас, балки бирон масала юзасидан ўзининг шахсий муносабатини ижро орқали билдира олиши керак.

Ўқувчининг мустақил машгулотларида мустиқа ижрочилиги санъатига онгли муносабати етакчи вазифани ўтайди. Чолгуда ижрони ўрганиш жараёнида яхши йўлга қўйилиган, мунтазам равишда амалга ошириладиган уй машгулотларининг ахамияти жуда каттадир. Бунда машгулотлар давомида ўқувчида меҳнатга бўлган онгли муносабат шакллана боради. Баъзи ўқитувчилар ўз ўқувчиларига керагидан ортиқ хомийлик кўрсатиб, уларни мустақил меҳнат қилишларига халақит берадилар. Аксинча, ўқувчиларнинг мустақил меҳнат қилишлари учун қанчалик эрта имконият яратилса, унинг натижаси шунчалик тез кўзга ташланади.

Талаба мустақил ишни тайёрлашда муайян фаннинг хусусиятлари ҳисобга олган ҳолда куйдаги шакиллардан фойдаланиш тавсия этилади



## Дастурнинг информацион-услубий таъминоти

Маъжур фанни ўқитиш жараёнида таълимнинг замонавий методлари, педагогик ва ахборот-коммуникация технологиялари қўлланилиши назарда тутилган.

Маъжур фанларни ўқитиш жараёнида таълимнинг замонавий методлари, педагогик ва ахборот - коммуникацион технологиялари йўналиши назарда тутилади:

- чолғу ижрочилиги ва чолғучилар ансамбли фанлари бўйича назарий билимларда замонавий компьютер технологиялари сайтларидаги электрон дарсликлар намуналаридан фойдаланиш;

- ўрганилган асарлар ижроси ёзилган муслиқий дискетлар, CD DVD VP3 ва магнитофон ленталари;

- муслиқий филлиmlар ёзилган хужжатлар дисклар;

- Ўзбекистон телевиденияси «Олтин фонди»да сақланаётган «Шашмақом», «Олтин мерос», мумтоз ашулалари ва филлиmlардан визуал ҳолда фойдаланиш.

**Фойдаланиладиган  
асосий  
дарсликлар ва ўқув  
қўлланмалар руйхати**

1. Х.Нурматов – Қашкар рубоби, Тошкент, 2003 й.
2. Ўзбекистон Республикаси маданияти ишлари вазирлиги – Рубоб наволари, Тошкент, 1993 й.
3. Ш.Рахимов – Дутор, Тошкент, 2005 й.
4. Б.Рахимжонов – Дуторчилар ансамбли, Тошкент, 2002
5. Р.Ҳамроқулов – Рубоб тароналари тўплами. Самарқанд. – 2003 й.
6. Ш.Н.Рахимов, Чолғу ижрочилиги фан нашриёти. - 2007 й.
7. Ш.Жайнадаров, Чолғучилар ансамбли, Ўзбекистон нашриёти, Тошкент, 2002 й.

1. Я.Мильштейн – “Фортелиано учун мослашган плабир”.
2. С.Йўлдашева, С.Сливак, “Хрестоматия, Педагогик репертуар фортелиано учун”, 1 – 2 қисм.
3. Н.Г.Рискиева, “Фортелианога оид адабийотларни ўрганиш бўйича сиртқи бўлим талабаларига методик тавсияномалар”.
4. Ўзбек композиторларининг асарлари, /С.Варелас, Б.Гиенко, Г.Мушель, П.Халиков, Х.Рахимов/.
5. Абдуллаева Р., Концерт для фортелиано с оркестром. – Т., Изд-во Ф.Фуляма нашриёти, 1988
6. Головянц Т.А, Мейке Е.С. Композиторы и музыковеды, Узбекистана, Тошкент, Қатарол, 1999
7. www. Zlzo. net
8. [http. /www/uroli.ru](http://www/uroli.ru).

**Қўшимча адабиётлар**

## TALABANING MUSTAQIL ISHLASHI

Talaba o'z o'qituvchisining ko'rsatma va fikrlariga ko'r-ko'rona ergashib bo'ysunishi emas, balki biror masala yuzasidan o'zining shaxsiy munosabatini ijro orqali bildira olishi kerak.

O'qituvchi rahbarligida o'tiladigan darsning ahamiyati katta, lekin bu ish o'quvchining mustaqil ishlari muhimligini inkor etmaydi, O'quvchining mustaqil mashg'ulotiga sarf bo'layotgan vaqtini bekor o'tkazmasligini o'rganib borish kerak. Buning uchun o'quvchiga mustaqil mashg'ulotni qanday tashkil qilish, nimalarga ko'proq e'tibor berish kerakligini tushuntirish lozim. Vaqtdan ratsional va umumli foydalanish mustaqil ishlash asosi prinsiplaridan biri bo'lishi zarur.

Asosiy prinsiplaridan yana biri mashg'ulotning muntazamligidir. Ijroni o'rgatishning dastlabki davridan boshlab o'quvchida muntazam mustaqil ishlashni ko'nikmasini hosil qilish zarur. Odatda, muntazamlikka erishish qiyin bo'lsa ham, bunday mashg'ulotlar asta-sekin odat tusiga ko'rib borishi maqsadga muvofiqdir.

Ayrim o'quvchilarning uyga berilgan vazifani tayyorlay olish hollarini ham uchratamiz. Buning sababini bir so'z bilan tushuntirish qiyin. Lekin ko'p hollarda uy vazifasi tayyor emasligining sababi o'quvchining darsga bo'lgan yomon munosabati yoki dangasligida emas, balki vazifani oxirigacha tushunib etmasligi, musiqa asarini o'rganishga qanday yondoshish kerakligini bilmasligidadir. Shu sababli mustaqil ishlash uchun berilayotgan vazifa o'quvchiga batafsil tushuntirilishi, o'quvchining imkoniyatlarini hisobga olgan holda aniqlashtirilishi lozim.

Ba'zi o'quvchilar mustaqil mashg'ulot paytida berilgan musiqa asarini boshidan oxirigacha ko'p marotaba takrorlayveradilar. Bunda musiqa asarining ma'nosini va o'ziga xos xususiyatlari to'la va aniq tahlil qilinmaydi. Asar o'quvchi oldida ijro etib bera olish uchungina yuzaki takrorlanadi.

Mustaqil shug'ullanishdagi mashg'ulotlarning kamchiliklardan yana biri o'quvchilar vazifani tayyorlash jarayonida o'z ijrolarini nazorat qila olmasliklaridir. Masalan, musiqa asarining teksti yod olinishida biror nota noto'g'ri o'rganiladi va buni o'quvchining o'zi sezmaydi. Yoki ma'lum bir ijro usuli noto'g'ri bajariladi va bu ham o'quvchining nazaridan chetda qoladi. Bunday kamchilik dars paytida o'qituvchi tomonidan bartaraf etiladi. Ijro paytida o'zining harakatlari, tovushlarning to'g'riligini nazorat qilish ko'nikmasi o'quvchilarda o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki reja ravishda olib borilgan mashg'ulotlar evaziga erishiladi. O'z-o'zini nazorat qilishning ijrochi uchun ahamiyati juda katta u orqali ijrodagi kamchiliklarga barham berish mumkin.

Mustaqil mashg'ulot qanday tuzilishi kerak va nimalardan iborat bo'ladi? Yuqorida aytib o'tganimizdek, mustaqil mashgulot uchun berilgan vazifa qanchalik aniq, konkret bo'lsa, o'quvchining vazifasi shuncha osonlashadi. Mustaqil mashg'ulot qanday kechishidan qat'i nazar, uni ma'lum reja asosida olib borish yaxshi natija beradi. Quyida mutaquil mashg'ulotlarning tahminiy tuzilishi va vaqtini keltiramiz:

1. Gamma, uch tovushliklar va turli mashqlarni ijro etish 10-15 daqiqa.
2. Yangi berilgan vazifani o'zlashtirish 15-20 daqiqa.
3. Dam olish uchun 5 daqiqa.
4. Oldin o'rganilgan vazifalarni takrorlash 20-25 daqiqa.

Keltirilgan vaqtlar me'yori taxminiy bo'lib, uni belgilashda o'quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda vazifalar hajmining katta-kichikligiga qarab kamaytirish yoki, aksincha, ko'paytirish mumkin.

Mustaqil mashg'ulot uchun keltirilgan taxminiy vaqtning jami 45-60 daqiqani tashkil etyapti. Bu bir qarashda kamdek ko'rinishi mumkin. Ammo mashg'ulotlar muntazam ravishda davom ettirilsa, ko'zlangan natijaga bemalol erishish mumkin.

Musiqa asarini yod olishni har bir sozanda qobiliyati va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiradi. Bu

borada hamma uchun yagona ko'rsatma bo'lishi qiyin. Ba'zi sozandalarda tekstni ko'rib eslab qolish qobiliyati kuchliroq bo'lsa, boshqalarida eshitib eslab qolish qobiliyati kuchli. Shu sababdan ham asarni yod olish ishida ularning metodlari turlicha bo'ladi. Muhimi, musiqa asari qaysi bir metod bilan yod olinishidan qat'i nazar, u sozandaning yodida mustahkam o'rnatilib qolishidir.

Hozirgi paytda o'quv yurtlaridagi o'zlashtiriladigan ma'lumotlar miqdorining ortib borishi, kam vaqt sarf qilib ko'proq natijaga erishishni taqozo etadi.

O'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlari muvaffaqiyatli bo'lishiga o'qituvchi rahbarligida sinfdagi darsni shu mustaqil mashg'ulotga yaqinlashtirib o'tish yordam beradi. Bunda o'quvchi barcha vazifalarni mustaqil bajaradi va o'qituvchi kerak bo'lgandagina o'z ko'rsatmalarini beradi.

O'qituvchining mustaqil mashguloti kunning qaysi vaqtiga mo'ljallanishi kerak? Bunday mashgulot vaqtini belgilash o'quvchining kun tartibiga bog'liq. Agar o'quv yurtidagi mashg'ulotlar asosan kunning birinchi yarmida bo'lsa, mustaqil mashg'ulot kunning ikkinchi yarmida o'tkaziladi. Muhimi, mustaqil mashg'ulot har kuni bir vaqtda o'tkazilishi.

Uy vazifasini bajarishning bir qator muhim tomonlari bo'lib, bularni o'quvchi esda tutishi zarur. Shulardan ba'zilarini ko'rib chiqamiz: Musiqa asari o'quvchi tomonidan avvalo to'g'ri tushunilishi, ya'ni asar mohiyati to'g'ri ochilishi asosiy vazifa qilib qo'yilishi kerak. Oldin aytib o'tilganidek, asar ma'nosini to'g'ri tushunishda ijro uslublarining tanlashishi, belgilarga rioya qilish, applekaturaning to'g'ri qo'yilishi kabi masalalar muhim ahamiyatga ega.

O'quvchining mustaqil mashg'ulotlari paytida uning diqqat-e'tibori albatta biror konkret vazifani bajarishga qaratilishi kerak. Aks holda mashg'ulot quruq ma'nosiz kechib, hech qanday natijaga erisha olmaslik mumkin. Ba'zi o'quvchilar musiqa asarini o'zlashtirish davrida nota tekstiga ko'proq e'tibor berib, ijroning ifodali bo'lishi kerakligini unutib

qo'yadilar. Shu kamchilikning oldini olish maqsadida o'quvchilarning diqqat markazida doimo ijroni ifodali bajarish vazifasi turishi shart. Boshqacha aytganda, o'quvchilar asar tekstini o'zlashtirishga qancha kuch sarf qilishsa, ijroning ifodali chiqishiga ham shuncha e'tibor berishlari kerak.

O'quvchi biror xatoga yo'l qo'ygan paytda, shu bo'lakni vazmin tezlikda diqqat bilan qayta takrorlashi kerak. Shunda yo'l qo'yilgan xatoning sababini to'g'ri aniqlab, shu xatoga boshqa yo'l qo'ymaslik choralari ko'radi. O'quvchilar ijrosidagi xatolar ham bir-biridan farq qiladi. Ayrim holatlarning qaytarilishi o'quvchilarda odat tusiga kirib, asarning ma'lum qismida hato deyarli har safar takrorlanaveradi. Bunga sabab toto'g'ri tanlangan applikatura, ijro usuli yoki boshqa bir kamchilik bo'lishi mumkin. Bunday xatolarning kelib chiqish sababini to'g'ri aniqlash uni bartaraf etishning garovidir. Xatolar tasodifiy xarakterga ega bo'lsa ham, ularga yo'l qo'ymaslik lozim. Xatolar qanday bo'lishidan qat'i nazar o'quvchi o'zining mustaqil mashg'uloti paytida ularni bartaraf etish choralari topishni o'zining asosiy maqsadlaridan biri qilib qo'yishi kerak.

Cholg'u ijrosi bilan shug'ullanish natijasida o'quvchi ham aqliy, ham jismoniy charchashi sababli uning dam olishiga bir oz vaqt ajratilishi kerak. Aks holda ijroning sifati yomonlashib, xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilishi mumkin.

### **Musiqiy ritm, eslab qolish va eshitish qobiliyati**

Ritm — musiqaning asosiy elementlaridan biri bo'lib, musiqa tovushlarining vaqt birligi ichida joylashuv qonuniyatini belgilab beradi.

O'quvchida ritm tuyg'usini shakllantirish va rivojlantirish musiqa pedagogikasining eng zarur va muhim vazifalaridan biridir. Olimlarning fikricha, bu ishning qiyinligi musiqa tovushining vaqt birligi ichidagi cho'zimini uning balandligiga nisbatan aniq qayd etib bo'lmazligidadir. Shunga qaramasdan, olimlar o'quvchilardagi musiqa ritm tuyg'usini tarbiyalash mumkin, degan fikrni ilgari suradilar.

Ma'lumki, musiqa ritmi umuman musiqa asarining tashkiliy elementlaridan biri bo'lib, asarning mazmunini, uning obrazli mohiyatini aks ettiradi. Inson o'zining turli faoliyatida musiqa asarining mazmuni bilan tanishadi. Lekin faqatgina ijro paytida sozanda musiqa asarining mazmuni va ritmiga tobora chuqurroq tushunib boradi. Musiqa ijrosi davomida, uni eshitish paytida ochilmay qolgan fikr va tuyg'ular ijrochi uchun tushunarli bo'lib borishi mumkin. So'z bilan ifodalab bo'lmaydigan o'ziga xos musiqa ritmining mohiyati sozanda tomonidan ayni ijro paytida anglanadi. Ijro jarayoni sozandaga musiqa asarining ritmik tuzilishi bilan yaqindan tanishish va uni tushunish imkonini beradi. Aytish mumkinki, musiqa asarining ijrosi o'quvchilarda musiqa ritmi tuyg'usini tarbiyalash va rivojlantirishga yordam beradi.

Musiqa asarini o'zlashtirish davomida shu asarning ritmik shaklini o'quvchi tobora yaxshiroq tushunib bordi, Bu esa o'z navbatida musiqa ritmi tuyg'usini mustahkamlash yo'llaridan biri sanaladi.

Cholg'u ijrochiligi ta'limining dastlabki paytlaridan boshlab, nota cho'zimlarini vaqt birligiga nisbatan o'rgatib, boriladi. Nota cho'zimplari xaqidagi bilimlar ijrochilik san'atini egallashda asosiy bilimlardan hisoblanadi. Har qanday musiqa asarini ijro etishda nota cho'zimlarini anglashning cholg'uchilik mahorati asoslaridan biridir. O'quvchilardan musiqa ritmi tuyg'usini tarbiyalash ishiga ta'limning dastlabki paytlaridan kerakli darajada e'tibor berish haqiqiy sozandani shakllantirish uchun zamin yaratadi. O'quvchi musiqa ritmi, o'zlashtirmasdan turib, kelajakda sozanda sifatida shakllanishi mumkin emas.

Taniqli pedagog va kompozitorlarning ta'kidlashicha, musiqa ritmining nota yozuvi orqali ko'rsatilishi uning mohiyatini to'la ochib bera olmaydi. Bundan kelib chiqadiki, musiqa ijrochiligidagi ritm o'zining tabiati bo'yicha ijodiy xarakterga egadir. Yuqorida aytib o'tilganidek, bevosita ijro paytidagina musiqa ritmining tub mohiyati va ma'nosiga tushunib etish mumkin. Musiqadan tashqarida, undan

uzilgan holda musiqa ritmi tuyg'usi xosil bo'lishi va rivojlanishi mumkin emas.

Yosh sozandaning musiqa ritmi tuyg'usini shakllantirish va rivojlantirishda qo'shimcha imkoniyatlar mavjud. Bu imkoniyatlarning ba'zilarini quyida ko'rib chiqamiz.

Ijro etilayotgan musiqa asarini sanash. Ijro paytida musiqa asarining ritmik sanab chalinishi tuzilishni osonroq tushunishga yordam beradi. Umuman ijro paytidagi sanash musiqa ritmini his etishda va mustahkamlashda foydalidir. Ba'zi o'quvchilar ijro paytida ovozlarini baralla chiqarib sanashga odatlanib qoladilar va bu odatni tark etish kelajakda ancha qiyin bo'ladi. Ayni shu fikrni oyoq bilan sanashga o'rganib qolgan o'quvchilar xususida ham aytish mumkin. Asar ijrosi paytidagi bunday sanashlar, albatta o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Shuning uchun ham tarbiya jarayonida bunday kamchiliklarni asta - sekinlik bilan yo'qotish choralari ko'riladi. Tajriba ortib borgan sari o'quvchida nota cho'zimlarining ritmik ijrosiga nisbatan ichki tuyg'u rivojlanib, bunday sanoqqa hojat qolmaydi.

Ijrochilar ichida keng tarqalgan usullardan biri dirijyorlik qilishdir. Sozanda dirijyorlik qilish orqali musiqa asari ritmik tuzilishini tushunish bilan birga, shu asarning kechinma va tuyg'ularni sezishi va unga o'zining munosabatini bildirishi mumkin.

O'quvchilar orasida tez-tez uchrab turadigan kamchiliklardan biri asar ijrosi davomida tezlashib yoki sekinlashib ketishdir. Bunday kamchilikni bartaraf etish uchun odatda musiqa pedagogikasida quyidagi chora qo'llanadi: o'quvchi ijro paytida barcha harakatlarini to'xtatadi, bir-ikki takti faqat ovoz chiqarib (ijro etmasdan), sanaydi, so'ng ijroni yana davom ettiradi. Bundan tashqari, o'quvchida asarning ritmi jihatdan yaxshi va to'g'ri ijro etilayotgan bo'laklar kamchiligi bo'lgan qismlar bilan taqqoslanishi ham yaxshi natija berishi mumkin.

O'quvchilarda musiqa ritmi tuyg'usini shakllantirishda o'qituvchining xizmati juda kattadir. Uning o'quvchi bilan



birgalikda sanani, chapak va turli harakatlar bilan yordam berishi o'quvchi uchun foydali.

Musiqani eslab qolish qobiliyati ma'lum musiqiy materialni kerakli vaqt ichida ijrochi ongida saqlanib qolishini ta'minlaydi. Musiqa fanida ijrochi uchun eng zarur bo'lgan uchta sifat birligi xaqida gap yuritiladi: eshitish qobiliyati, musiqa ritmi tuyg'usi va eslab qolish qobiliyati (xotira). Eslab qolish tuzilish jihatidan murakkab qobiliyat bo'lib, xotiraning bir necha turini o'z ichiga oladi. Masalan, ijrochi o'z faoliyati davomida eshitish va harakat bilan bog'liq bo'lgan xotira turlaridan foydalanadi. Yana ko'rish orqali xotira turini keltirish mumkin. Tajribadan ma'lumki, har kimning xotirasi o'zining shaxsiy tipologik xususiyatiga ega. Shu bilan birga musiqa xotirasini rivojlantirishda, olimlarning fikricha, ayniqsa musiqa ijrochiligi uchun obrazli - eshitish xotiraning foydasi kattadir. Haqiqatan ham, musiqa eshitish orqali qabul qilinib, taassurot olinadigin san'at turi bo'lganligi tufayli, musiqa xotirasi birinchi navbatda eshitish xotirasidir.

Maxsus izlanishlar natijasida ma'lum bo'ldiki, o'quvchilarning musiqa eshitish qobiliyati, ritmik tuyg'usining rivojlanish tuyg'usi bilan musiqa xotirasining sifatlari o'rtasida bevosita bog'liqlik bor. O'quvchida musiqiy eshitish qobiliyati va ritm tuyg'usi qanchalik rivojlangan bo'lsa, unda musiqiy xotirasi (yodda saqlab qolish) shunchalik sifatli bo'ladi va aksincha, undagi eshitish qobiliyati va ritm tuyg'usining sifati past bo'lishi musiqa xotirasining rivojlanishiga xalaqit beradi.

Sozandaning xotirasi turli faoliyatda qatnashib ma'lum darajada takomillashib boradi. Musiqa asarini tinglashdan tortib, to uning ijorosigacha bo'lgan faoliyatda musiqiy xotira qatnashadi. Shu bilan birga, musiqiy xotiraning to'g'ri shakllanishi va rivojlanishi uchun eng qulay shart - sharoit musiqa ijrochiligida yaratiladi. Musiqa asarini yod olishni o'z oldigi maqsad qilib qo'yadi. Ijrochi faoliyatining asosiy va o'ziga xos xususiyatlaridan biri ham shudir. Chunki asar yod bo'lsa, ijrochilikning har taraflama erkinligi uchun imkon bo'ladi. O'quvchi o'z ongini musiqa asarini yodlashga

qaratganligi unig mehnat qobiliyatini birmuncha yaxshilash va faollashtirish bilan bir qatorda, musiqa xotirasining samaradorligini ham oshiradi.

Sozanda aniq ijro harakati orqali musiqa asari bilan tanishadi. Mana shuning o'zi ham musiqa xotirasining rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Boshqacha aytganda, musiqiy asarning ijrosi paytida sozandaning faolligi musiqa xotirasining faollashishiga ham yordam beradi. Haqiqatan ham, musiqa asarini tinglash va uni bevosita ijro etish bir-biridan farq qiladi. Tajribadan ma'lumki, musiqa asarini tinglashdan ko'ra uni ijro etish vaqtida eslab qolish osonroq ko'chadi. Sozandaning ijro harakati ham uning musiqiy xotirasini rivojlantirishga va mustahkamlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, musiqa qo'llanmalarini eslab qolishda yagona ko'rsatma berib bo'lmasligiga va bu ishga har xil yondashish mumkinligiga ishonch hosil qildik. Eslab qolishni qaysi yo'l bilan amalga oshirish hal qiluvchi ahamiyatga ega emas. Hamma gap musiqani eslab qolish ishining mazmuni, xarakteri va uslubidadir. Tushunib yod olingan materialning sifati anglamasdan yod olingan materialning sifatiga qaraganda ancha ustun bo'ladi. Xuddi shu qonuniyatni musiqa ijrochiligi sohasida ham ko'rishimiz mumkin. Agar o'quvchiga ma'lum mantiqiy tartibda joylashgan tovush qatorini yodlash uchun berilsa, u vazifani unchalik qiynalmasdan bajarishi mumkin. Keyin esa shu tovush qatorning mantiqiy tartibini buzib qaytadan berilsa, o'quvchining bu tovushlari yig'indisini yodlashi ancha qiyin bo'ladi. Shunday qilib, musiqa asarini chuqurroq tushunish, uning badiiy mohiyatini, shaklini, xullas, asar muallifi nima demoqchi ekanligini to'laroq anglash musiqa asarini yodda mustahkam saqlanib qolishining asosiy shartlaridan biridir.

Albatta, mohir sozandalarning kundalik mashg'ulotlarida ma'lum bir parchani o'n (xatto yuz) martalab takrorlash hollarini kuzatamiz. Lekin bunday takrorlashlar biri ikkinchisining aynan nusxasi bo'lmasdan, balki har bir takrorlash o'ziga xos badiiy yoki texnik izlanish bilan ajralib

turadi. Mohir sozandalarning takroriy mashqlari ma'lum darajada ijodiy harakatga ega va har bir takrorlashda bu mashqlar o'zining sifati bo'yicha yangi pog'onaga ko'tarilib boradi. Cholg'u ijrochiligi sohasida natija inson faolligi, ongli mehnati va faoliyatning maqsadga qaratilganligiga bog'liqdir.

Musiqa ijrochiligiga o'rgatish musiqa xotirasini rivojlantirish uchun zamin yaratadi. Musiqa xotirasini mustahkamlash ustida o'quvchining muntazam ishlashi xotiraning takomillashishini ta'minlaydi.

Yirik musiqa asarlari yod olishda umumiydan xususiya qarab xarakat qilish kerakligini ko'plab mashxur cholg'uchi -o'qituvchilar aytib o'tishgan. Boshqacha aytganda, musiqa asarining umumiy shakli va ma'nosini anglab olgandan so'ng alohida qismlarni o'zlashtirishga kirishish kerak. Bunday qismlarni o'zlashtirishga kirish kerak. Bunday qismlar nisbatan tugallangan va mustaqil bo'lishi zarur. Ijrochilik bo'yicha qiyin bo'lgan qismlarga ko'proq vaqt va e'tibor berish kerak bo'ladi.

Yod olish uchun ajratib olinayotgan qismlar o'zining hajmi jihatidan juda katta bo'lmasligi zarur.

Ijrochilik va pedagogik tajriba ko'rsatadiki, asarni yod olishda undagi «ma'nodor» xarakterli o'rinlarga tayanish yaxshi natija berishi mumkin. Shuningdek, musiqiy fikr (faza)ning boshlanishi va tugashini aniqlab olish, o'ziga xos bezakli o'rinlarga e'tibor berish ham mustahkam yod olishga yordam beradi.

O'quvchilarning ba'zilarida ko'rib eslab qolish qobiliyati rivojlangan bo'lsa, boshqalarda eshitib yodda saqlab qolish qobiliyati ustun turadi. Bu ikki salohiyat bir maromda rivojlangan o'quvchilarni ham ko'rish mumkin. Asarni yod olishda qaysi usuldan foydalanishdan qat'iy nazar, muhimi, xotirada mustahkam saqlanib qolishidir.

## Musiqiy asar ijrosi ustida ishlash

Asarning xarakteri, tonalligi, badiiy obraz yo‘nalishi, kulminatsiyasi va umumiy tuzilishini anglab olish to‘laqonli ijroga yordam beradi. Bularni aniqlashda o‘qituvchining yordami zarur.

Asar nazariy jihatdan o‘zlashtirilgandan so‘ng uning amaliy ijrosiga o‘tiladi. Musiqa asarlari boshidan ohirigacha bir xil texnik qiyinchilikda bo‘lmasdan, balki uning ba‘zi qismlari boshqalariga nisbatan murakkabroq bo‘lishi mumkin. Bunday paytda shu qiyin o‘rinlar alohida ajratilib, ularning ijrosi ustida maxsus mashqlar o‘tkazish tavsiya etiladi. Lekin bunday ishlash jarayoni juda uzoq davom etmasligi kerak. Shu qiyin qismning ijrochi tomonidan mustaqil ravishda bekami – ko‘st ijrosiga erishilsa ham, ko‘p hollarda asarni boshidan oxirigacha ijro etganda xuddi ana shu qism asarning umumiy yo‘nalishi bilan qo‘shilmasdan, alohida ajralib qolishi mumkin. Shu sababli qiyin qismlarni takrorlashda shu qismdan bir necha takt oldinga va keyingilarini qo‘shib ijro etish tavsiya etiladi. Asar o‘zlashtirilayotgan paytda ijrochining imkoniyatlariga mos bo‘lgan tezlikni tanlash va ijroning bir maromda bo‘lishga erishish kerak bo‘ladi. Muzika asarining ustida to‘g‘ri ishlay bilish ijro mahoratini oshirishning omillaridan biridir.

Cholg‘u ijrochiligi sinflarining tajribasida ba‘zi musiqa asarlarini o‘zlashtirish ishi konsert yoki yakuniy nazoratgacha etib bormaydi. Bu asarlar sinf ishi sifatidagina o‘zlashtiriladi. Sinf ishidan asosiy maqsad musiqa asarining umumiy mazmuni bilan tanishish, unda ishlatiladigan ijro ko‘nikmalarini o‘zlashtirish va shular asosida bayon qilinmoqchi bo‘lgan musiqaviy kechinmalarni cholg‘u yordamida talqin eta bilishdir. Musiqa pedagogikasida bunday sinf ishlariga alohida e‘tibor beriladi va u o‘quv jarayonining maxsus shaklini tashkil etadi.

Sinf ishi sifatida o‘qitiladigin musiqa asarini o‘zlashtirish uchun ajratiladigan vaqtning chegaralanganligi shu asar ustida

ishlash jarayonini jadallashtirishni anglatadi. Bunda o'quv-pedagogik jarayonning o'zi tezlashadi; o'quvchi oldida ma'lum materialni qisqa, chegaralangan vaqt ichida o'zlashtirish vazifasi turadi. Buning hammasi o'quvchidan yangidan-yangi qo'llanmalar bilan tanishish, bir joyda turib qolmaslik, oldingi o'tilgan qo'llanmani bir xil ravishda takrorlayvermaslikni talab qiladi. Sinf ishi uchun ajratilgan musiqa asarlari ustida ishlash bilan notaga qarab chalish kabi mashg'ulotlarning foydali tomoni ko'p. Bu ikki holda ham o'quvchi xilma-xil musiqa asari bilan qisqa vaqt ichida tanishish imkoniyatiga ega. Ayni paytda, sinf ishi bilan notaga qarab chalish mashg'uloti ma'lum darajada bir-biridan farq qiladi. Notaga qarab chalishda o'quvchi material bilan bir marta epizodik tanishish imkoniyatiga ega bo'lsa, sinf ishi jarayonida u asar bilan to'laroq va asosli tanishib, o'zlashtirishi mumkin. Sinf ishi bilan shug'ulanadigan o'quvchi, musiqa asarini bir necha bor takrorlashi tufayli o'zi uchun shu asarning mohiyati, mazmuni, tuzilishi va boshqa sifatlarni to'laroq ochishi mumkin. Shu asosda asarning ijodiy g'oyasi va unda bayon etilayotgan badiiy fikrlar o'quvchiga tobora tushunarli bo'lib boradi.

Sinf ishi uchun tanlanadigan repertuar o'zining xarakteri, tuzilishi, mazmuni va boshqa ko'rsatkichlari jixatidan rang-barang bo'lishi zarur. Bundan tashqari, repertuardan o'rin olgan asarlarning shakli, unda bayon etiladigan his-tuyg'ularning boyligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhimi, sinf ishi uchun tanlangan asarlar o'quvchilarga yoqishi, ularda katta qiziqish uyg'otishi kerak. Agar asosiy repertuar o'quvchi uchun majburiy bo'lsa, sinf ishi uchun asarlarni o'quvchining xohishiga qarab tanlash mumkin. Shu boisdan ham bu erda o'qituvchi o'quvchining istagiga qarshi emas, balki unga nisbatan xayrixoh bo'lishi maqsadga muvofiq.

Sinf ishida foydalaniladigan musiqa asarlarining murakkabligi esa o'quvchining xaqiqiy imkoniyatlariga qaraganda ma'lum darajada qiyinroq bo'lishi mumkin. Bu

asarlar konsertda yoki yakuniy nazoratlarda ma'lum darajada ijro etilmasligini hisobga olsak, o'qituvchi yuqorida aytilgan prinsipni qo'llashi to'g'ri bo'ladi.

Sinf ishi dastlabki paytda albatta o'qituvchining ishtiroki va nazorati ostida o'tishi kerak. Keyinchalik o'quvchining tajriba va ko'nikmalari ortib borgan sari o'qituvchining ishtiroki kamayib boradi va xatto musiqa asarlari bilan tanishish o'quvchining mustaqil mashg'uloti paytida amalga oshiriladigan bo'lishi ham mumkin. Bunda o'qituvchi o'quvchiga umumiy ko'rsatmalar berishi bilan chegaralanadi. O'qituvchi uchun muhimi, sinf ishi hamda musiqa asari bilan tanishish o'quvchi tomonidan to'g'ri tashkil etilishidir.

Sinf ishi uchun asarlarni o'zlashtirish asosiy repertuardagi asarlar ustida ishlashdan farq qiladi. Asosiy repertuardagi qiyin o'rinlar o'quvchi bir necha bor takrorlasa va nihoyat uni yod olsa, sinf ishidagi asarlar ijrosida u o'z e'tiborini musiqa asaridagi badiiy obrazlarni yaxlitligicha talqin qilishga, asar shaklini o'z ijrosi bilan umumlashtirishga qaratishi kerak. Bunda albatta, asardagi barcha ko'rsatma va belgilarga to'la rioya qilishga e'tibor berish kerak. Xuddi mana shunday ijro o'quvchining rivojlanishiga yordam beradi. Sinf ishida o'quvchining umumiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadigan imkoniyatlar shunday ko'pki, bunday mashg'ulot bilan muntazam ravishda shug'ullangandagina shu imkoniyatlar to'la ochilishi mumkin. O'quvchi sinf ishi uchun tanlangan asarlar ijrosiga muntazam ravishda vaqt ajratgan holdagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

O'qituvchining musiqiy dunyoqarashini, eshita olish tajribasini va professional jihatlarini kengaytirishda sinf ishlaridan samarali foydanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonida sinf ishalaridan foydalanish o'quvchining umumiy musiqiy rivojlanishi uchun asosiy omillardan biridir.

## Notaga qarab ijro qilish

Notaga qarab ijro qilish murakkab jarayon bo'lib, u maxsus mashqlar yordamida o'zlashtiriladi. Notaga qarab ijro etish jarayonini kuzatadigan bo'lsak, unda qo'yidagi qismlarni ko'rishimiz mumkin: nota ko'rinishining o'quvchi ongiga etib borishi; o'quvchi ongida qanday harakatni amalga oshirish kerakligining aniqlanishi; kerakli harakatlar yordamida berilgan notaning ijro etilishi.

Notaga qarab ijro etish jarayonining qanchalik tez sodir bo'lishi nota ko'rinishini qabul qilib (anglab), kerakli harakatni amalga oshirish tezligiga bog'liq. Agar jarayonining biror qismi yaxshi ishlamasa, notaga qarab ijro etishda ko'zlangan natijaga erishish qiyin bo'ladi.

Notaga qarab ijro etishning murakkab taraflaridan biri shuki, musiqa asarining bir qismi ijro etilayotganda cholg'uchi keyingi qismini ko'rib, uning ijrosiga tayyorgarlik ko'rishga tayyorlanadi. Tajribasiz o'quvchilar ko'p holda buning uddasidan chiqa olmaydilar natijada, ularning ijrolari uzilib qoladi.

Diqqat-e'tiborni bir maqsadga qarata bilish notaga qarab ijro etishning muvaffaqiyatli o'zlashtirishini ta'minlaydigan omillardan biridir. Notaga qarab ijro etish qobiliyatini rivojlantirishda quyidagi amaliy mashqlar yordam berishi mumkin; eng oddiy musiqa, boshlang'ich taktning birinchi yarmi ijro etilayotganda o'quvchi o'z e'tiborini shu taktning ikkinchi yarmiga qaratadi. Xuddi shu usul asarning keyingi taktlarini ijro etishda ham qo'llanadi.

Mashg'ulotlar yordamida o'quvchiga berilayotgan vazifa asta-sekin murakkablashtiriladi, lekin bu vazifa o'quvchining imkoniyatlari darajasida bo'lishi kerak.

Sozandada notaga qarab ijro eta olish qobiliyatini rivojlantirish muammosi va uni hal etishga qaratilgan ko'rsatmalar musiqa pedagogikasida alohida o'rin tutadi. Ko'zga ko'ringan ijrochi - o'qituvchilarning fikricha, notaga qarab ijro etish sozandaning kundalik mashg'ulotlari

qatoridan o‘rin olishi shart. O‘quvchi muntazam ravishda notaga qarab ijro etish bilan shug‘ullangan taqdirda turli davrga oid bo‘lgan rang barang musiqa asarlari bilan tanishadi.

Notaga qarab ijro etilayotgan musiqa asarlarining hammasi ham kelajakda o‘quvchi tarafidan yod olinishi shart emas, balki ular o‘quvchining fikrlash, yangilik ochish va yangi, o‘ziga ma‘lum bo‘lmagan taassurotlar bilan tanishish ehtiyojini qondirish uchun ijro etiladi. Notaga qarab ijro etayotgan sozandaning fikrlashi birmucha faollashadi, uning musiqiy qo‘llanmalarni qabul qilib olishi ma‘lum darajada o‘tkirlashadi. Shu bilan birga o‘quvchi notaga qarab ijro etayotgan musiqa asariga butun vujudi bilan beriladi va uning his-tuyg‘ulari ham bu jarayonda bevosita ishtirok etadi. Bundan kelib chiqadiki, notaga qarab ijro etish mashg‘ulotlari ijrochi repertuar, uning nazariy va amaliy bilimlarini boyitibgina qolmasdan, balki umuman musiqiy fikrlash jarayonining sifatini yaxshilaydi.

Notaga qarab ijro etish o‘quvchining umumiy musiqiy rivojlanishida eng samarali yo‘llardan biridir.

Cholg‘u ijrochiligi ta‘limi o‘z oldiga o‘quvchining umumiy musiqiy qobiliyatini, professionalligini rivojlantirishni asosiy maqsad qilib qo‘yar ekan, shubha yo‘qki, notaga qarab ijro etish ana shu maqsadning amalga oshishida asosiy va maxsus vosita vazifasini bajaradi. Notaga qarab ijro etishning muhimligi tan olingan holda, amalda unga ba‘zan keraklicha e‘tibor berilmaydi. Albatta, notaga qarab ijro etishga qancha ko‘p vaqt sarflansa, bu o‘z navbatida, ma‘lum ijobiy natija berishi mumkin. Lekin bu jarayonni tashkil qilishda ongli nazorat yo‘lga qo‘yilishi lozim.

Tajribadan ma‘lumki, sozandaning notaga qarab ijro etish qobiliyati qanchalik rivojlangan bo‘lsa, uning ichki eshitish qobiliyati ham shunchalik rivojlangan bo‘ladi. Ya‘ni bunday sozanda nota belgilariga ko‘zi tushishi bilanoq shu tovushni ijrosiz eshita oladi. Demak, sozandadagi «ko‘rish orqali eshitish» qobiliyati qanchalik rivojlangan bo‘lsa, uning notaga qarab ijro eta olishi ham shunchalik sifatli bo‘ladi.

Notaga qarab ijro etishning muhim shartlaridan yana biri



ijrochining nigohi nota tekstidan uzilmasligidir. Cholgʻu torlari va pardalar joylashuvini yaxshi oʻzlashtirib olmagan oʻquvchilarning nigohlari dam nota tekstiga, dam cholgʻu grifiga koʻchib turadi. Oʻquvchi notaga qarab, uning balandligini belgilab olgandan soʻng, nigohini cholgʻu grafikasidagi pardalarga koʻchirishga majbur, chunki pardalarni yaxshi oʻzlashtirib olmaganligi sababli grifga qaramasdan barmoqlarni pardaga aniq qoʻya olmaydi. Navbatdagi notani aniqlashda oʻquvchi yana nigohini nota tekstiga koʻchiradi. Bunday vaziyatda koʻp oʻquvchilar tekstning qaysi joyiga kelganliklarini yoʻqotib qoʻyadilar. Kerakli joyni topish uchun esa bir oz vaqt talab etiladi. Mana shu kamchiliklar natijasida oʻquvchining ijrosida notoʻgʻri toʻxtashlar sodir boʻladi. Bu esa asarning uzluksiz ijrosiga putur etkazadi. Shu sababli ijrochi nigohining bir manbadan koʻchishi qanchalik kam boʻlsa, shunchalik ijro uchun foydali boʻladi. Demak, cholgʻu ijrochiligi taʼlimida oʻquvchi - sozandaning cholgʻu grafaga qaramasdan kerakli pardani topa bilishni boshqa koʻnikmalar qatori muntazam ravishda oʻrganib borishi notaga qarab bemalol ijro eta olish qobiliyatini rivojlantirishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Notaga qarab ijro etishni amalga oshirayotgan paytda oʻquvchidan nota yozuvidagi barcha belgilariga qatʼiy rioya qilishni birdaniga talab qilib boʻlmaydi. Oʻqituvchi bu jarayonda oʻquvchi birinchi navbatda eʼtibor berishi kerak boʻlgan narsalarni olindan tushuntirib, belgilab berishi katta ahamiyat kasb etadi. Bizningcha, oʻquvchi asarlardagi yaxlit musiqiy fikrning boshlanishi va tugallanishiga birinchi navbatda eʼtibor berishi kerak. Yaʼni asarda bayon etilgan tugal fikrning uzilib qolishi yoki tushunarsiz ijro etilishiga yoʻl qoʻymaslik kerak. Notaga qarab ijro etishni asarda bayon etilayotgan musiqiy fikrlar asosida tashkil qilish yaxshi natija beradi.

Notanish musiqa asarlarini notaga qarab ijro etishdan oldin koʻzdan kechirib, tanishib chiqish, yaʼni shu asarni cholgʻusiz «ijro etish» tavsiya qilinadi. Bunda, birinchidan,

sozanda bevosita ijro harakatlaridan xoli bo‘ladi; ikkinchidan, asarning tuzilishni o‘rgatish imkoniyati tug‘uladi, Qo‘shimcha qilib aytish mumkinki, o‘quvchi asarning nota yozuvini ko‘zdan kechirib, cholg‘usiz «dilda» ijro etishi uning ichki eshituv qobiliyatini ma‘lum darajada rivojlantirib boradi. Tajriba guvohlik beradiki, musiqa asari bilan bunday tanishuvdan keyin ijro engil va aniqroq amalga oshiriladi, sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan xatolar kamayadi va ijro erkinligi ta‘minlanadi.

### **Tarbiya jarayonida talabalarga individual yondashish**

Insonlar individual xususiyatlari bilan bir-biridan farq qilishi ma‘lum. Mutlaqo bir xil xususiyatli odamlar bo‘lmaganidek, har bir o‘quvchining xususiyatlari ham o‘ziga xos va takrorlanmasdir. Ta‘lim - tarbiyaning talablari esa barcha o‘quvchilar uchun yagona bo‘lib qolaveradi. Samarali natijaga erishish uchun o‘quvchilarga nisbatan pedagogik vositalarni qanday qo‘llash kerak? Ta‘lim ishida o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, shu xususiyatlar asosida ishni tashkil etish yuqoridagi savolga ma‘lum darajada javob bo‘lishi mumkin.

Ta‘lim jarayonida o‘quvchilarga individual yondashish muammosi ijodiy xarakterga ega. Bu jarayonning har bir bosqichiga oldindan aniq ko‘rsatma berib bo‘lmaydi. Pedagogikada tarbiyalanuvchilarga individual yondashish masalasi ta‘lim -tarbiya ishining barcha bo‘g‘inlarini o‘z ichiga oladi. Individual yondashishning mohiyati o‘quvchi oldiga qo‘yilgan umumiy tarbiya vazifasining har bir o‘quvchiga, uning barcha xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagogik ta‘sir ko‘rsatish orqali amalga oshirilishidir.

Amalda xulqi, xarakteri, salohiyati turlicha bo‘lgan o‘quvchilarni uchratish mumkin. Bazi o‘quvchilarning qobiliyatlari yoshlik chog‘laridanoq sezilsa, boshqalarida qobiliyatni aniqlash ancha vaqt talab etadi. Ayrim o‘quvchilar sho‘x, o‘yinqaroq bo‘lib, ko‘p narsaga qiziqsalar, boshqalari

vazmin, bosiq bo‘ladilar. O‘quvchilarning xarakter va xulqlari qanday bo‘lishidan qat’iy nazar ularga o‘qituvchining e’tibori talab etiladi.

O‘quvchilarga individual yondashish birinchi, navbatda ularda ijobiy sifatlarni mustahkamlash va salbiylarini yo‘qotishga qaratiladi. O‘quvchilarning salbiy sifatlarini o‘qituvchi vaqtida sezib, bartaraf etish choralarini ko‘rishi, kelajakda o‘quvchini qayta tarbiyalashdek qiyin ishning oldini oladi. Tarbiyada individual yondashish samaradorligini oshirishda o‘quvchi xarakteridagi ijobiy sifatlarga tayanish foydali, degan fikr avvaldan ma’lum. Masalan, cholg‘uni o‘rganayotgan o‘quvchida biror usul boshqalariga nisbatan yaxshi rivojlangan deylik, Repertuar tanlashda o‘qituvchi o‘quvchining xuddi shu sifatlarini hisobga olishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu o‘quvchidagi kamroq rivojlangan sifatlarga e’tiborsizlik bilan qarash, degani emas. Aksincha, o‘quvchilardagi ijobiy sifatlardan unumli foydalanish ularda kamroq rivojlangan sifatlarni ishga solish va mukammallashtirishga yordam beradi.

### **Fortepiano jo‘rligida ijro etish**

Musiqa asarini o‘rganishda dutor partiyasi bilan birgalikda ijro etiladigan fortepiano partiyasini puxta o‘rganish zarur. Forteplano bilan birga ijro etishni musiqa asarini o‘zlashtirish jarayonida boshlagan ma’qul. Shunda ijrochi o‘z partiyasini o‘zlashtirish bilan bir qatorda fortepianoda ijro etiladigan partiyani ham o‘ziga singdirib boradi. Ba’zi sozandalar o‘z partiyalarini oxirigacha o‘zlashtirib bo‘lganlaridan keyingina fortepiano bilan birgalikda ijro eta boshlaydilar. Bu hol cholg‘uchi uchun birmuncha qiyinchilik tug‘diradi.

Cholg‘u va fortepiano ijrosi uchun yaratilgan musiqa asarlarini kuzatsak, unda quyidagi va o‘xshashliklarni uchratishimiz mumkin. Ba’zi musiqa asarlarida fortepiano cholg‘uchi (solist)ga jo‘r bo‘lish vazifasini bajarsa, boshqa musiqa asarlarida cholg‘u bilan fortepianoning partiyalari

bir-birga teng va ma'lum darajada mustaqil xarakterga ega bo'ladi. Birinchi xolda kuyni boshqarib borish asosan cholg'uchi (solist)ga yuklatilgan bo'lib, fortepiano faqat jo'rlik (akkompanement) vazifasini o'taydi. Bunda solist ijro etayotgan kuy mustaqil, ijrosi fortepianosiz ham ma'lum darajada tugallangan bo'ladi. Bunday musiqa asarlari o'zining tuzilishi bo'yicha nisbatan oddiy bo'lib, ulardan ta'limning boshlangich davrlarida foydalanish mumkin. Lekin bundan o'quvchi sozanda fortepiano partiyasiga e'tibor bermasa ham bo'laveradi, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Bunday musiqa asarlarini ijro qilish paytida o'quvchi fortepianoda ijro etilayotgan akkordlar va ritmik shartlarni o'z ijrosi bilan birgalikda eshita olishi lozim.

O'zbek xalq cholg'uchilarida ijroni o'rganayotgan yosh sozandalarda fortepiano bilan birgalikdagi ijro paytida ko'proq uchrab turadigan kamchiliklardan biri musiqa asari ijrosini fortepiano bilan bir vaqtda boshlay olmaslikdir. Bu paytda o'quvchining diqqati tamomila o'zining ijrosiga qaratiladi va natijada fortepiano jo'rliqi solistning ijrosi bilan bir vaqtga to'g'ri kelmay qoladi. Ijroni fortepiano bilan birgalikda boshlash ko'nikmasini shakillantirishda musiqa asarining birinchi tovushi boshlanishdan oldingi harakat hal qiluvchi rol o'ynaydi. Buni asarning boshlanishidagi dirijyorning qo'l harakati (auftakt)ga o'xshatish mumkin.

Musiqa asari davomida cholg'uchi partiyasida ma'lum miqdorda pauzalar uchrab turadi. Bunday paytda fortepianodagi ijro, odatda davom etadi. O'quvchi pauzalarning necha taktligini eslab qolish bilan bir qatorda o'z ijrosining qachon boshlanishini ham puxta bilib olishi kerak. Bunda pauza davomidagi fortepiano ijrosini to'la anglab olishi yaxshi natija beradi.

Bundan tashqari, musiqa asaridagi asosiy kuyning yo'nalishini aniqlab olish fortepiano jo'rligida ijro etishda asosiy vazifalardan biridir. Ma'lumki, har bir musiqa asari ma'lum kuy (ohang) asosida qurilgan bo'ladi. Mana shu kuy fortepiano partiyasidami yoki solist partiyasidaligini ajrata

bilish konsertmeyster bilan chalish vaqtida ijroning to‘laqonli bo‘lishiga yordam beradi.

Fortepiano partiyasini yuzaki bilish cholg‘uchi uchun etarli emas. Fortepiano partiyasi solistning partiyasi bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, musiqa asarining buzilmas kompozitsiyasini tashkil etadi. Shuning uchun haqiqiy ijro ulardan ansambl qonun-qoidalariga bo‘ysungan holda katta mehnatni talab qiladi. Cholg‘uchining fortepiano bilan birgalikdagi ijrosi qanchalik o‘z vaqtida boshlansa, musiqa asarini o‘zlashtirilishi shunchalik sifatli va tez bo‘ladi.

### **O‘ng va chap qo‘llar harakatining mutanosibligi tog‘risida**

Ijro paytida o‘ng va chap qo‘l harakatining mutanosibligiga erishish ijro sifati uchun katta ahamiyatga egadir. Cholg‘uda ijroni o‘zlashtirishning dastlabki bosqichida o‘ng va chap qo‘llar holati ularning asosiy harakatlarini alohida o‘rganish va o‘rgatish maqsadga muvofiq bo‘lsa, keyinchalik ikkala qo‘l harakatining bir-biriga mutanosibligi asosida ish olib boriladi. Ya’ni o‘rtacha qiyinchilikdagi musiqa asarini ijro etish paytida ikkala qo‘l harakatiga sozanda bir xil e’tibor berishi kerak. Agar bu paytda sozanda e’tiborni bir qo‘lga qaratib, ikkinchisini nazoratdan chiqarib qo‘ysa albatta, ijro kamchilikdan xoli bo‘lmaydi. Bunday paytda uchraydigan kamchiliklardan biri o‘quvchi chap qo‘l barmoq almashinuvining o‘ng qo‘l tovush hosil qilish harakati bilan mutanosibligini buzishidir. Masalan, birinchi tovush ijro etilgandan so‘ng, ikkinchi tovush o‘ng qo‘l yordamida chalinadi-yu, lekin chap qo‘lning barmog‘i kerakli paytda ko‘rsatilgan pardani bosishga ulgurmaydi. Natijada, tovush umumiy eshitilmaydi yoki bo‘g‘iq jarangsiz bo‘ladi. Goxida esa buning aksi ham bo‘lishi mumkin. Yana bir kamchilik, tordan-torga o‘tib ijro etishda qo‘llar harakatining nomutanosibligidir. Bunda chap qo‘lning barmoqlari bir tordan boshqa torga o‘tish vaqtida ulgursa, o‘ng qo‘l harakatni

vaqtida bajara olmaydi. Osoyishta, rez bilan uzilmasdan ijro etishni talab qiladigan kuylarda chap qo‘l barmoqlari almashgan paytda rez usulini bajarayotgan o‘ng qo‘lning harakati, odatda, uzilib qoladi, ohangning uzluksizligi buziladi. Va nixoyat, chap qo‘lning barmoqlari har bir yangi tovush ijrosi paytida bosish harakatini qaytadan ta’kidlab amalga oshiradi. Bunday harakat ham kuyning uzilishiga olib keladi. Yuqorida ko‘rsatilgan kamchiliklarning barchasi o‘quvchining e’tiborsizligidan yoki ijro vazifasini to‘g‘ri tushunib etmasligidan dalolatdir. O‘qituvchi uning sababini aniqlab, o‘quvchiga tushuntiradi so‘ngra uni yo‘qotish choralarini belgilaydi.

O‘quvchilarning o‘ng va chap qo‘l harakat qobiliyati bir xil bo‘lmasligi mumkin, ya’ni chap qo‘l barmoqlarining harakati talab darajasida bo‘lsa, o‘ng qo‘l harakatchan bo‘lmasligi yoki aksincha bo‘lishi mumkin. Bunday holda o‘quvchi uchun tanlanayotgan repertuar va texnik materiallar shu kamchilikni yo‘qotishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

### **O‘qituvchi va talabning o‘zaro munosabati**

Musiqqa ijrochiligidan ta’lim berish o‘qituvchidan turli bilim, ko‘nikma va qobiliyat talab etadigan ishdir. O‘qituvchi uchun faqat sozanda bo‘lishning o‘zi etarli bo‘lmay, undan pedagogik fikrlash, o‘quvchining ichki dunyosiga ko‘ra bilish, uning individual xususiyatlarini hisobga olish kabi sifatlarga ega bo‘lish ham talab etiladi. Cholg‘u ijrochiligidan ta’lim beradigan o‘qituvchi umumiy pedagogika va psixologiya sohalaridan ham xabardor bo‘lishi kerak.

O‘quvchi o‘z o‘qituvchisini xaqqoniy va talabchan, kundalik xayot muommolarini to‘g‘ri hal qilishga o‘rgatuvchi shaxs sifatida tasavvur etadi. O‘quvchilar o‘qituvchidagi har bir noaniq harakatlarni o‘z vaqtida ilg‘ab oladilar. Shu bilan birga ayrim o‘quvchilar paydo bo‘lgan muammoni asosan bir taraflama, voqeaning emotsional tarafiga asoslangan holda hal etmoqchi bo‘ladi. O‘z o‘quvchisining tabiatini

yaxshi o'rganib, tushungan o'qituvchi bunday paytda talabaga muayyan holatdan to'g'ri xulosa chiqarib olishda yordam berishi kerak. O'qituvchi o'z fikrini doimo xaqiqiy fikrga asoslangan holda ishontirish yo'li bilan tushuntirishi lozim.

O'zaro ishonch va yaxshi munosabatning paydo bo'lishida o'qituvchining xulqi, muomala madaniyati katta ahamiyatga ega. O'quvchilar o'zlari yoqtirgan o'qituvchilarga taqlid qilishlari yaxshi ma'lum. Agar o'qituvchining so'zi bilan amaldagi ishlari orasida to'la mutanosiblik, bo'lsa, o'quvchilarning shu o'qituvchiga bo'lgan hurmati yanada ortadi.

O'qituvchiga nisbatan oddiy va samimiy munosabatda bo'lish o'qituvchilarning asosiy vazifasidir. Qo'pol muomalada bo'lgan o'qituvchilar oldida o'quvchilar kamgap bo'lib, haqiqiy munosabatlarni berkitishga xarakat qiladilar.

Ba'zi o'qituvchilar o'z o'quvchilarining boshqa o'qituvchilar sinfidagi ishlar bilan tanishishlariga qarshilik ko'rsatadilar.

O'quvchida namoyon bo'layotgan ijodiy intilishga hech qachon qarshilik ko'rsatish kerak emas. Undagi kelajakka bo'lgan umid va ishonchni qo'llab-quvvatlash yaxshi natija beradi. O'zidan avvalgi o'qituvchilarning ishini tanqid ostiga olish o'quvchiga salbiy ta'sir ko'rsatib o'qituvchiga bo'lgan ishonchga putur etkazishi mumkin.

Pedagogik qobiliyat – insonning boshqa sifatleri kabi amaliy ish faoliyatida rivojlanib boradi. Pedagogik qobiliyat bilimlarni o'quvchilarga aniq, ravon, tushunarli va qiziqarli qilib etkazish, o'quvchining psixologiyasini tushunish, bajariladigan ishda o'xshashliklarga yo'l qo'ymaslik, o'z faoliyatini tanqid va tahlil qila olish kabilarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, o'qituvchi ba'zi tashkiliy ishlarni ham amalga oshirishi kerak bo'ladi: ishni rejalashtirish, konkret sharoit va o'quvchining imkoniyatlarini hisobga olgan holda sinf va uy mashg'ulotlarini tashkil etish va boshqalar.

O'qituvchi xarakteridagi individual hususiyatlar tarbiya ishida katta ahamiyatga ega. O'qituvchilardan irodali bo'lish, maqsadga to'g'ri intilish, talabchanlik bilan har bir ishni o'z

vaqtida oxiriga etkaza olish, qiyinchilaklarni engishda mardlik ko'rsata olish kabilar talab etiladi. Ta'lim ishining muvaffaqiyatli bo'lishi o'quvchining kamchiliklarini tushuntirish va ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatishga bog'liqdir. O'quvchi bilan bo'lgan muomalada o'zini tuta bilamaslik, jaxldorlik va boshqa shunga o'xshash kamchiliklar o'qituvchi obro'siga putur etkazadi. Muomalada o'ta to'g'rilik, qat'iylik va kamtarinlikni o'quvchilar yaxshi qabul qiladilar. O'qituvchi o'z bilimini to'xtovsiz to'ldirib borishi kerak. U maxsus adabiyotlar bilan qiziqishi, mashhur o'qituvchilar tajribasini o'rganishi, shaxsiy tajribasini tahlil qilib, umumlashtira olishi lozim. Bunday o'qituvchilarning darslari doimo qiziqarli va mazmunli o'tadi. O'quvchining ijodiy tasavvurini faollashtirish maqsadida aniq misollar tanlay olishning ahamiyati juda katta. O'quvchiga qanday musiqa asari yoqadi-yu, qanday asar ijro etish istagi borligini o'qituvchi albatta hisobga olishi kerak. Oldin aytib o'tilganidek, o'qituvchi o'z sinfida o'quvchilarning yuksak musiqiy didlarini shakllantirish bo'yicha kerakli ish olib borishi zarur.

Umuman o'quvchi faol, u yoki bu muammoni mustaqil hal eta oladigan qilib tarbiyalanishi lozim. Bu o'quvchining individual imkoniyatlari rivojlanganligiga bog'liq. O'qituvchi o'quvchisining ijobiy va salbiy taraflarini chuqur o'rganib, o'zining tarbiyaviy ishini tashkil etadi.

Har bir o'quvchining tarbiyasi o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, biri ikkinchisdan farq qiladi. Oquvchi mahoratining muhim taraflaridan biri har bir o'quvchidagi yaxshi xususiyatni vaqtida topib, o'nga e'tibor berishdir.

O'quvchi o'quvchining diqqat-e'tiborini qadrlashi, uning shaxsga hurmat bilan qarash kerak. O'quvchining iroda kuchiga aloqador bo'lmagan kamchiliklarni uning yuziga solish yaramaydi. Umuman, ta'lim-tarbiya jarayonida ukuvchining shaxsini xakoratlaydigan kursatmalarga yul kuyib bulmaydi.



O'quvchining profesional obrazi uning umumiy madaniyati bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, o'quvchining nazoratida ekanini unutmaslik kerak. Birgina nojo'ya qo'yilgan qadam yoki aytilgan so'z o'quvchiga bo'lgan xurmatni yo'qqa chiqarishi mumkin.

O'quvchi ta'lim tarbiya jarayonida asosiy shaxs bulib, uning pedagogik maxorati va bilimi xaqiqiy ijroni shakllantirishda xalq qiluvchi omil bulib xizmat qiladi. Bu maxoratni rivojlantirishda boshqa o'qituvchilarning ishlari bilan tanishish juda katta axamiyatga ega. Ilgor pedagogika metodlarni yaqindan o'rganish tarbiya jarayonida uchrab turadigan kamchiliklarni bartaraf etishda o'qituvchilarga yordam beradi. O'qituvchi o'z ishiga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lishi, kasbdoshlarning maslaxatlarini to'g'ri qabul qilish kerak.

O'qituvchilik katta quvonch baxt etish bilan birgalikda javobgarlik xam demakdir. Bizning mamlakatimizda o'qituvchilik katta xurmatga ega bo'lgan e'zozli xunar xisoblanadi. O'quvchi tufayli bilimlar poydevori urnatiladi, inson dunyoqarashi va xarakteri shakllanadi. Sifatleri erkin fikrlash, mexnatga muxabbat, odamiylik, ijodiy sifatlar bevosita o'qituvchining ta'sirida tarbiyalanadi.

### **Gamma, uch tovushliklar mashqlar. ijro etishning texnik imkoniyatlarini rivojlantirish**

Gamma, uch tovushlik va turli mashqlar ustida ishlash o'quvchini musiqa asarida uchraydigan passajlar va xar xil uch tovushliklarni ijro etishga oldindan tayyorlaydi. O'quvchi gamma ijro etish jarayonida tordan torga muloyimlik bilan o'tish mashqini tobora yaxshiroq o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bundan tashqari, gamma va uch tovushliklar o'quvchiga texnik va badiiy shtrixlarni o'zlashtirishda material bo'lib xizmat qiladi.

Unutmaslik lozimki, gamma va uch torliklar ijrosi muayyan maqsad va ma'no bilan amalga oshirilishi kerak.

Har safar gamma ijro etilayotganda sozanda oldiga aniq maqsad qo'yilmog'i shart. Bu vazifa o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, uning umumiy ijrochilik qobiliyati rivojlanishiga foyda beriladigan bo'lishi kerak. Masalan, o'quvchi ijrosida tovushni baland chalib ijro etish oqsayotgan bo'lsa shu usulni gamma va mashqlar yordamida takrorlash mumkin. Xuddi shu yo'lni ijroning boshqa usullarini takomillashtirishda qo'llash maqsadga muvofiq.

Gamma, uch torlik va boshqa mashqlarni ijro etish, ijro mahoratini o'rganish o'quv jarayonining ajralmas bir qismi bo'lishi kerak. Bu turli ijro ko'nikmalarini hosil qilishda, ularni rivojlantirish va takomillashtirish katta rol o'ynaydi.

Ijrochilik faoliyati, turli ko'nikmalarning rivojlanish qonuniyatlarini chuqur va har taraflama tahlil qilish cholg'uda ijroni o'rgatishni takomillashtirishda zarur asos bo'lib xizmat qiladi. Ijro uchun zarur ko'nikmalarni shakllantirish musiqa pedagogikasida eng dolzarb muammo bo'lib, buning sabablardan biri - zamonaviy musiqa asarlarining ijrosi sozanda oldiga kun sayin bir - biridan murakkab talablar qo'yilishidir. Bunday talablarning o'sib borishi ijrochi uchun zarur asos bo'lib xizmat qila oladigan eng oddiy ko'nikmalarning puxta o'zlashtirilishini taqozo etadi. Ijro harakatlarini puxta o'zlashtirish va ularni ko'nikmalarga aylantirish sozanda ishini birmuncha engillashtiradi. Ijro harakatlarini amalda ko'p marotaba qo'llanganda avtomatizm darajasiga yaqinlashib, ma'lum ko'nikmaga aylanadi. Bunday harakatlar esa turli mashqlar yordamida amalga oshiriladi.

Mashqlarni o'zlashtirish va murakkablashtirish ta'lim jarayonining muhim qismidir. Shu bilan birga, ta'lim faqatgina mashqlarning ijrosi emas. Mashqlar ta'lim jarayonining ajralmas bir qismi bo'lib xizmat qiladi. O'quv jarayonining barcha amaliy va nazariy taraflarini hisobga olgan holda mashqlarni ongli ravishda takrorlash ijobiy samara beradi. Mashqlar musiqa asarining talablariga xizmat qiladi. O'quvchi biror mashq harakatni amalga oshirayotgan paytda uning e'tiborini musiqaning ma'noli tamoniga qaratmog'i kerak.

Mashq ijroning ma'noli ko'nikmalarini hosil qilish, rivojlantirish va mustahkamlashga qaratilgandir. Bu vazifani bajarishda o'quv jarayonini sistemalashtirish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ko'nikmalarining ichki tuzilishini, oldingi ko'nikmaga asoslangan holda yanada murakkabroq ko'nikma hosil etish yo'llarini hisobga olish zarur. Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, ijrochilik apparatini muntazam ravishda tarbiyalash ishi «oddiydan murakkabga» prinsipi asosida tashkil etilishi kerak. Yangi ko'nikmani o'zlashtirish ishiga oldingi ko'nikma puxta o'zlashtirilgandan keyingina o'tish mumkin. Aks holda o'quvchi oldiga qo'yilgan vazifa o'ta murakkablashib ketishi mumkin. Shu sababli ijro texnikasining turli elementlarini o'rganishda uzviy bog'liqlik prinsipiga amal qilish zarur bo'ladi.

O'quvchining yangi ko'nikmani o'zlashtira olishi uning oldingi ko'nikmani qay darajada o'zlashtirganiga bog'liqdir, chunki yangi o'rganilayotgan ko'nikma oldingisi bilan ma'lum darajada o'zaro aloqadorlikda bo'lib, o'zining ta'sirini ko'rsatadi. Masalan, yangi o'rganilayotgan passaj oldingisiga o'xshash bo'lganligi tufayli sozanda uchun qiyinchilik tug'dirmaydi. O'quv jarayonida o'quvchiga yangi o'rganilayotgan ko'nikma (yoki musiqa materiali)ning oldingisiga o'xshash yoki farqlari bo'limlarini aniqlashni, ularni tahlil etishni o'rgatib borish muhim ahamiyatga ega. O'quvchida shakllanadigan bunday sifatlar darsning samaradorligini oshirishga, kam vaqt sarf qilib ko'proq natijaga erishishga yordam beradi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkin: ko'nikmani o'zlashtirish jarayonini (keyinchalik qayta o'zgartirib o'rganmaslik maqsadida) ilmiy asosda olib borish kerak, o'rganilayotgan ko'nikmani puxta o'zlashtirib bo'lgandan so'ng yangisini o'zlashtirishga kirishish lozim. Yangi ko'nikmalarni o'zlashtirishga o'quvchining ongli yondashishi (ijro harakatining tuzilishini bir-biriga solishtirib tahlil eta olish, ularning farqini aniqlay bilish va boshqalar), o'rganilayotgan turli ko'nikmalarining o'zaro ijobiy ta'siriga erishish lozim.

Tajribadan ma'lumki, o'quvchi biror mashq yoki ko'nikmani o'zlashtirishda pirovard maqsadni qanchalik oldindan aniq tasavvur qila olsa, natijaga shunchalik oson erisha oladi. Bunda o'qituvchi u yoki bu harakatning bajarilishini o'quvchiga ko'rsatib berishi katta ahamiyatga ega. O'quvchining o'zi mustaqil ravishda ko'rsatilgan ko'nikma harakatining kerakli va asosiy tarafini darhol aniqlay olmasligi mumkin. Bu holda o'quvchini mustaqil kuzata bilishga o'rgatish kerak. O'quvchi faqat chetdan kuzatibgina qolmay, balki harakatning mohiyatini tushunishi, tovushni eshitibgina qolmasdan, uni o'ziga singdirib olishi kerak.

Aniq maqsadga qaratilgan kuzatishning xarakterli jihatlaridan biri - muayyan qo'llanmani o'quvchi tomonidan fikrlab, tahlil etish bilan qabul qilish. Kuzatishning muvaffaqiyati maqsadning aniq qo'yilishiga bog'liq. Maqsadning aniq va konkret qo'yilishi o'quvchining kuzatishini oldindan tayyorlaydi. Kuzatish maqsadga muvofiq ravishda oldindan tayyorlarmasa, o'quvchida aniq tasavvur paydo bo'lishi qiyinlashadi. Shu sababli o'qituvchi harakat yoki ko'nikmani o'quvchiga ko'rsatib berishi zarur. Aks holda o'quvchi ikkinchi darajali narsalarga diqqatini jalb etib, asosiysi esa e'tibordan chetda qolishi mumkin.

Musiqqa material yoki mashqni tanlashda shu materialni to'la tahlil qilish ijro harakatlarini to'g'ri amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Murakkab harakatlarni o'rganishda uning qismlarini alohida ajratib o'zlashtirish yaxshi natija beradi.

O'qituvchining to'g'ri va aniq ko'rsatmalari o'quvchining kundalik mashqlari uchun asos bo'ladi. Darsda olingan ko'rsatma va tasavvurlar yordamida o'quvchi mustaqil mashg'ulotlar paytida musiqiy ijro ko'nikmalarini asta - sekin o'zlashtirib boradi. O'quvchining o'zi qanday xatoga yo'l qo'yayotganini, yutuqlarini, u yoki bu mashq qanday foyda keltirishini aniqlay bilishi juda muhimdir. Mashqlarning takrorlanishi undagi bor kamchiliklarni yo'qotishga

qaratilishi kerak. Ma'lumki, o'z mashg'ulotlarini to'g'ri baxolay olmaydigan o'quvchi qanchalik ko'p shug'ullanmasin, yaxshi natijaga erisha olmaydi. Musiqa materialini, ijro etish maqsadini aniq bilish va o'z xatosini anglash - ko'nikma hosil qilishning zarur shartlari sanaladi.

O'zining xatosini va yutuqlarini baholay olish sifati o'quvchida asta - sekin o'qituvchining yordamida paydo bo'lib, rivojlanib boradi. Ma'lumki, ijroni endigina o'rganayotgan yosh o'quvchilar o'z xatolarini to'g'ri aniqlay olmaydilar yoki sezmaydilar. O'quvchining ko'rsatmalariga ko'p vaqt muntazam ravishda amal qilish orqali o'quvchi o'z ijrosini kuzatib, nazorat qilishga o'rganishi mumkin. Bundan tashqari, o'z ijrosiga tanqidiy munoabatda bo'lish, o'z-o'ziga talabchanlik sifatlari o'quvchi ijrosining rivojlanishida katta ahamiyatga egadir. Tajribasi ortib borgan sari o'quvchi o'z xatolarini aniqlashi ham osonlashib boradi. Avvalgi maxsus tahlildan so'ng aniqlanadigan xatolar keyinchalik bevosita ijro davomida o'quvchi tamonidan aniqlanib, tuzatilishi mumkin.

Ma'lumki, o'quvchilar o'z xatolariga qaraganda o'zgalarning xatosini tezroq aniqlay oladilar. O'quv jarayonida o'quvchilarning bu sifatlaridan unumli foydalanish maqsadida mashg'ulot davomida o'quvchilar bir-birlarining ijrolarini tinglashni tashkil qilish yaxshi natijalar berishi mumkin. Bundan tashqari, o'quvchilarga ijroni magnit yozuvi orqali eshittirish ham tajribada qo'llaniladi. Texnika vositasida yo'l qo'yilayotgan xatolarni aniqlash, to'g'ri tahlil etish o'z samarasini beradi.

Yangi materialni ko'rsatib berilayotgan vaqtning o'zida shu misol ijrosi davomida ko'proq uchrab turadigan xatolarning oldini olish uchun ko'rsatmalar berish o'quvchi mehnatining samaradorligini oshiradi. Yangi qo'llanmalarining to'g'ri o'zlashtirilishini o'qituvchi diqqat bilan kuzatib borishi kerak. O'quvchi tarafidan noto'g'ri o'zlashtirilgan ko'nikma (postanovka, ijro harakatlari va boshqalar)ni qayta tuzish murakkab ish ekanligi ma'lum.

Yaxshi texnikaga ega sozanda deyilganda, odatda, ko‘z oldimizga ijro harakatlari tez, aniq va chaqqon bo‘lgan, barmoqlari katta tezlik bilan harakat qila oladigan cholg‘uchini keltiramiz. Lekin yaxshi texnikaga ega bo‘lgan sozanda musiqa asaridagi muallif aytmoqchi bo‘lgan fikrni o‘z ijrosi bilan ochib beribgina qolmay, balki cholg‘u tovushlari yordamida ma‘lum ma‘nodor fikr yarata olishi ham kerak.

Ma‘lum maqsadga qaratilgan texnikani rivojlantirmasdan turib, cholg‘u ijrochiligida biror amaliy natijaga erishish qiyin. Sozandada ijrochilik texnikasi qanchalik rivojlangan bo‘lsa, uning o‘zi uchun shunchalik yaxshi.

Endi cholg‘udagi ijro texikasining o‘ziga xos qismlari va ijrochilik tajribasida ko‘proq uchrab turadigan kamchiliklar sabablari bilan tanishib chiqamiz. Dutorda ijro texikasini rivojlantirish deganda, chap qo‘l barmoqlarining pardalar bo‘ylab xarakati va o‘ng qo‘l tovush hosil qilish harakatlarining qanchalik rivojlanganligini tushunamiz. Tajribada kerakli barmoqlarni aniq qo‘ya olmaslik yoki o‘ng qo‘l yordamida boshqa, keraksiz torlarni chertib yuborish kabi kamchiliklar uchrab turadi. Ta‘lim jarayonida shunday kamchiliklarni zudlik bilan bartaraf etish choralarini ko‘rish kerak.

Gamma va turli mashqlar bilan dastlabki tanishish vaqtida uni vazmin tezlikda ijro etishning foydali tomonlari bor: musiqa qo‘llanmalarini umumiy tuzilishi bilan yaqindan tanishish: ijro etish usuli va uslublarini, tovush kuchini aniqlash imkoni tug‘uladi. Ijro qanchalik og‘ir tempda bo‘lmasin, zinxor qo‘pollikka yo‘l qo‘yish mumkin emas. Buning uchun ijrochining kerakli xarakterlarida ishtirok etayotgan gavda qismidagi muskullarning to‘la erkinligiga erishish kerak. Vazmin tezlikda ijro etilayotganda harakatlarning borishini kuzatish ancha oson. Lekin temp tezlashgan sari bunday kuzatish qiyinlashib boradi. Shuning o‘zi vazmin tezlikda ijro etishning foydali ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Musiqa qo‘llanmasini kerakli tezlikdagi ijrosiga qaysi paytdan boshlab o‘tish kerak? Yosh ijrochilar orasida ko‘p

uchrab turadigan kamchiliklardan biri shuki, ular og‘ir tempdagi ijrodan so‘ng birdaniga tez tempga o‘tmoqchi bo‘ladilar. Bunday ijro ko‘p xatolarga sabab bo‘lishi mumkin. Birinchidan, o‘quvchining ongi bunday tempda amalga oshirayotgan harakatlarni nazorat qilishga ulgurmaydi va ijro nazoratsiz kecha boshlaydi.

Endi sozandaning ijro paytidagi chidamliligi va gavda harakatining erkinligi xaqida so‘z yuritamiz. Sozandaning ijro paytidagi toqat va bardoshini uning psixofiziologik holati belgilaydi. Gap sozandaning chidamliligi u qanchalik ko‘p vaqt davomida mashqni uzluksiz davom ettira olishi xaqida borar ekan, uning gavdasi ijro xarakatlari uchun qanchalik moslashganligi to‘g‘risida to‘xtalmaslik mumkin emas. Gavda muskullarining qotib, siqilib qolishi ijro harakatlarini to‘g‘ri va erkin amalga oshirishiga xalaqit beradi. Shu sababli ham cholg‘uda musiqa asarini to‘laqonli ijro etish uchun, birinchi navbatda, muskul xarakatlarining erkinligini ta‘minlash zarur bo‘ladi. Muskullar qotib qolishining sabablari turlicha bo‘lishi mumkin. Bular postanovkaning noto‘g‘riligi, hayajonlanish asabiylashish, shart-sharoitning noqulayligi, qanday bo‘lishidan qat’i nazar, o‘qituvchi mashg‘ulot paytida muskul qotib qolishining oldini olishi kerak. Yirik sozanda-o‘qituvchilarning kuzatishlariga ko‘ra, o‘quvchilarning ijro harakatlarini amalga oshirayotgan muskullar qotib qolishiga asosan quyidagilar sozandaning elka, tirsak va panja muskullari qotishi; panja va barmoqlarning keragidan ortiq xarakatlanishi; chap qo‘l barmoqlarining pardalarga ortiqcha kuch bilan bosilishi; bevosita ijro etish xarakatlarida qatnashayotgan gavda qismlarining tortilib, qotib qolishi sabab bo‘lishi mumkin. Gavdaning qaysi qismida bo‘lishidan qat’i nazar, qotib qolmaslik to‘g‘risidagi fikr, ijro harakatlari paytida hech qanday kuch ishlatmasdan, bo‘sh holda harakatlanish degani emas.

## Repertuar tanlash

Cholg'uchi ijro qilgan asarlar majmuasiga repertuar deyiladi. O'quvchilar uchun repertuar tanlashda nimalarga e'tibor berish kerak? Repertuarni qanday tanlash kerak?

Duch kelgan asarni o'quvchiga ijro etish uchun beraverish yaramaydi. Tanlanayotgan asar o'quvchi - sozandaning ijro maxoratini yana bir pog'onaga ko'tarishga xizmat qilishi kerak. O'quvchining cholg'uda ijro mahoratining muvaffaqiyatli rivojlanishi har doim ham uning qobiliyati bilan belgilanavermaydi. Bunda repertuar tanlashning ham ma'lum darajada ahamiyati bor. Sozandaning oldiga qo'yilayotgan vazifalarning bir maromda murakkablashishi uning qiziqishini yanada kuchaytiradi. Boshqacha aytganda, navbatdagi tanlanayotgan asar oldingisiga qaraganda ijro jihatidan murakkabroq bo'lishi zarur. Aytish zarurki, ijro uchun tanlangan musiqa asari o'quvchining imkoniyatlariga mos kelishi kerak, toki u asarning badiiy va texnik vazifalarini hal eta olsin.

Dutorda ijroni o'rgatish va o'rganish jarayonining har bir bosqichida o'quvchi oldiga qo'yiladigan talablar asosli va o'rinli bo'lishi kerak. Agar bu talablar haddan tashqari murakkablashib ketsa, ya'ni asarlar o'quvchining imkoniyatiga qaraganda qiyinroq bo'lsa, albatta bu o'zining salbiy tasirini ko'rsatadi. Aksincha, tanlanayotgan asarlar juda soddalashib ketsa ham bo'lmaydi. Bu holda o'quvchining ijroga bo'lgan qiziqishi pasayib ketishi mumkin.

Ijro ta'limi tajribasidan shu narsa ma'lumki, o'quvchilarning hammasida ham ijro usuli va uslublarining ko'nikmasi bir xilda rivojlangan bo'lmaydi. Masalan, ba'zilar chap qo'lning ijro ko'nikmalari yaxshi rivojlangan bo'lsa, boshqalarida o'ng qo'l texnikasi rivojlangan bo'ladi. Yoki ba'zi o'quvchilar jadal tezlikdagi asarni ijro etishda qiyinchilik sezsalari, boshqalari vazmin, kuychan asarlarning ijrosida qiynaladilar. Repertuar tanlashda ko'rsatilgan xususiyatlar



albatta hisobga olinib, tanlangan asarlar yordamida kamchiliklarni bartaraf etish kerak.

Hozirgi paytda dutor ijrochilari uchun repertuar tanlashda boshqa o'zbek halq cholg'ulari va skripka, doira uchun mavjud bo'lgan to'plamlardan foydalanilyapti. Boshqa cholgular uchun qo'yilgan ijro belgilariga katta e'tibor berilishi kerak. Chunki qo'yilgan belgi faqat shu cholg'u uchungina qaratilgan bo'lib, dutorda ijrosi o'zgarishi mumkin. Masalan, g'ijjak yoki skripka uchun yozilgan asarlarda uchraydigan «legato» belgisi dutorda asosan rez usuli bilan ijro etiladi. Musiqa asari jadal tezlikdagi ijroni talab etsa, «legato» belgisi qo'yilgan bo'lsa ham (tovushlarning ulanishiga e'tibor bergan holda) pastga va yuqoriga zarblar bilan ijro etish kerak.

Bundan tashqari, dutorda boshqa cholg'ular uchun yozilgan asarlarni ijro etishda mavjud bo'lgan applikatura hamma vaqt to'g'ri kelavermaydi. Shuning uchun qulay applikaturani tanlashda o'qituvchining to'g'ri ko'rsatmalari katta ahamiyatga egadir. Dutor ijrochisi (barcha cholg'ular singari) o'z repertuariga turli davrga mansub bo'lgan musiqa asarlarini kiritishi maqsadga muvofiq. Repertuar tanlashning bu prinsipini qo'llash rang - barang musiqa materiallari bilan yaqindan tanishishda va o'quvchining dunyoqarashini boyitishda o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Dutor ijrochisining taxminiy repertuar rejasini keltiramiz;

1. O'zbek halq kuylari.
2. O'zbek kompozitorlarining asarlari.
3. Qardosh halqlar kompozitorlarining asarlari.
4. Evropa klassik kompozitorlarining asarlari.

Shuningdek, dutor ijrochisining o'quv repertuariga ikki-uchta turli xarakterdagi etyudlar, gammalar va mashqlar kiritiladi.

Musiqa asarining badiiy va texnik ko'rsatkichlari dutor cholg'usining ijro imkoniyatlariga mos tushishi repertuar tanlashda xal qiluvchi omillar sirasiga kiradi.

## **Talabalar umumiy musiqiy bilimining rivojlanishi**

Ijroni o'rgatishning mohiyati ma'lum asarlarni o'rganish, qator texnik ko'nikmalarni hosil qilish bilangina chegaralanib qolmasligi kerak. To'g'ri fikrlay oladigan va mustaqil ishlay biladigan sozandani shakillantirish o'qituvchining asosiy vazifasidir. O'qituvchi faqatgina cholg'uchilk san'atini o'rganayotgan o'quvchi bilan emas, balki tom ma'noda tarbiyalanuvchi bilan ishlayotganini his etishi lozim. Ishga xuddi mana shunday yondashish kerak, zamonaviy fan ta'lim va rivojlanishni ilmiy nuqtai nazardan chuqur va har taraflama o'rganibdi. Ta'lim va rivojlanish jarayoni bir - biri bilan uzviy bog'langan. Rivojlanish ta'lim jarayonida amalga oshiriladi. O'quvchilarning muayyan bilim, ko'nikmalarni o'zlashtirishlarining individual xususiyatlari, ongning qanchalik rivojlanganligi ta'lim jarayoniga ta'sirini o'tkazadi. Kimning ong va intellekt darajasi rivojlangan bo'lsa, u turli bilim va ko'nikmalarni oson va tez o'zlashtira oladi.

Ta'lim va rivojlanishning o'zaro bogliqligini e'tirof etish ta'lim jarayonida rivojlanish o'z - o'zidan amalga oshadi, degani emas. Fan talimining rivojlanganligiga ijobiy ta'sirini inkor etmaydi. Shunga qaramasdan, ta'lim ta'siridagi rivojlanish natijasi hamma vaqt ham bir xil bo'lavermaydi. Bunday natijalar keskin farq qilishi mumkin. Bu erda savol tug'iladi: ta'lim davomida rivojlanishga qanday manbalar o'z ta'sirini ko'proq o'tkazadi? Bu savolga G.M. Sipinning «Fortepianoda ijroni o'rganish», («Obucheniye igre na fortepiano») kitobidan javob topishimiz mumkin: «Bu erda ta'lim jarayonining mazmuni, shakli va metodlari hal qiluvchi ahamiyatga ega». Yuqorida aytib o'tilgan fikr bevosita cholg'u ijrochiligi ta'limiga ham tegishli. Hamma gap o'quvchining ijro etish ko'nikmalarini o'zlashtirishi bilan uning umumiy musiqiy rivojlanishi masalalarining bog'liqligi. Cholg'u ijrochiligi ta'limini o'quvchining umumiy musiqiy rivojlanishidan ma'lum darajada ajralgan xolda olib borish

hollari ham yo‘q emas. Buning sabablari quyidagicha:

– kundalik dars jarayonida o‘quvchidagi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida o‘qituvchi tamonidan berilayotgan ko‘rsatmalar etarli darajada asoslanmaydi, ya’ni kamchilikni keltirib chiqarayotgan sabablar atroflicha tahlil etilmaydi:

– mashg‘ulot paytida asosiy e‘tibor ijrochilik ko‘nikmalariga qaratilib, o‘quvchining umumiy musiqiy rivojlanishi uchun zarur nazariy bilimlarni o‘zlashtirish vazifasi ikkinchi navbatga o‘tib qoladi; dars mazmuni nisbatan qashshoqlashib qoladi; kerakli nazariy xulosalar va umumlashtirishlar amalga oshirilmaydi;

– o‘quvchilar o‘zlarining ijrochilik tajribalarida nisbatan kam miqdorda musiqa asarlaridan foydalanadilar; ularning repertuari xarakter, ijro murakkabligi jihatidan bir xil bo‘lib qoladi;

– o‘zlashtirilayotgan ijrochilik bilim va ko‘nikmalari o‘zining mazmuni va hajmi jihatidan tor doira ichida chegaralanib qoladi;

– ba’zi o‘quvchilar notanish musiqa asarini mustaqil ravishda to‘laqonli ijro etishga o‘zlik qiladilar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytishimiz mumkinki, mashg‘ulot jarayonida o‘quvchilar o‘zlarining tom ma’noda rivojlanishlari uchun juda kam miqdorda bilimga ega bo‘ladilar. Bundan tashqari, cholg‘u ijrosi ta’limida faollik, mustaqillik va ijobiy tashabbus kabi sifatlarni shakllantirishga etarli darajada e‘tibor berilmaydi. Xullas ijrochilik sinflarida sozandachilikning deyarli bir tomoni—ijro ko‘nikmalari hamda bilimlarini o‘zlashtirish va rivojlantirish ishi bilan chegaralanib qolinadi.

Cholg‘u ijrochiligi ta’limi bilan shug‘ullanayotgan ba’zi sinflarning kamchilik va nuqsonlari mana shulardan iborat. Aytib o‘tilgan kamchiliklarni diqqat bilan chuqurroq tahlil qiladigan bo‘lsak, unda o‘quvchilarning umumiy rivojlanish imkoniyatlarining kamsitilishi hollarini ko‘rishimiz mumkin. Haqiqatan ham, ta’lim davomida o‘zlashtirilayotgan repertuarining chegaralanganligi, o‘quv materialidagi umumiy va xususiy umumlashmalarning kamligi, o‘quvchilarning

mustaqilligi va faolligini to'la darajada ishga solmaslik kabi kamchiliklar o'quvchining umumiy musiqiy rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Aytib o'tilgan kamchiliklar ta'lim - tarbiya ishining barcha pog'onalarida — boshlangich musiqa maktablaridan tortib, oliy o'quv yurtlarida ham mavjud. Aytish kerakki, ta'lim jarayonini o'quvchining umumiy musiqiy rivojlanish ishiga xizmat qildirishni o'quv - tarbiya jarayoning barcha pog'onalarida va ayniqsa, boshlang'ich bosqichda yo'lga qo'yish foydadan xoli bo'lmaydi. Shu bilan birga, bu vazifani amalga oshirishni o'zi bo'larchilikka qo'yib qo'yish ham yaramaydi. Ta'limning yo'nalishi o'quvchining umumiy musiqiy rivojlanish talablariga javob berishi zarur. Ijrochilik ta'limining oldida turgan real vazifalarini hisobga olgan holda, cholg'uchilikda bilim va ko'nikmalarni o'rgatish va o'rganish tor ma'nodagi vazifa bo'lmay, balki mana shu vazifani hal etish musiqa tarbiyasining yirik muammolarini hal etishga qaratilishi kerak.

Avval aytib o'tganimizdek, o'quvchining umumiy musiqiy rivojlanishi ta'lim jarayonida amalga oshadi. Bu fikr pedagogika fanida isbot qilingan qonuniyatlardan biridir. Shu sababli ham umumiy rivojlanish imkoniyatlarini o'quv-tarbiya ishidan tashqarida emas, balki shu jarayonning aynan ichidan qidirishimiz kerak. Bu erda shunday savol tig'ilishgi mumkin; o'quvchining maksimal rivojlanishi uchun cholg'u ijrochiligining ta'limi qanday tuzilmog'i kerak? Bu savolga javob topish uchun birinchi navbatda ta'limda asos bo'lib xizmat qiladigan muayyan musiqiy-didaktik prinsiplarni anqlash zarur. Musiqa pedagogikasiga murojat etadigan bo'lsak, u erda asosan to'rtta musiqiy-didaktik prinsip aniqlaganligini ko'ramiz.

O'quv-pedagogik ishda foydalaniladigan materiallar miqdori hamda ijro etiladigan musiqa asarlarining ko'payishi hisobiga repertuar chegarasini kengaytirish, ko'proq o'zlashtirish yuqorida aytilgan prinsiplarning birinchisidir. Bu prinsip o'zining ahamiyati bo'yicha ham, o'quvchining

umumiy musiqiy rivojlanishida, professional ongning va tajribaning boyishida ham birinchi o‘rinda turadi.

Ikkinchi prinsip o‘quv - tarbiya ishida qo‘llanganda, o‘quvchilarning turli ma‘lumotlarni qisqa vaqt ichida o‘zlashtirishini ta‘minlaydi.

Uchinchi prinsip ijrochilik sinfidagi darsni olib borishgv va uning mazmuniga taalluqlidir. Mashg‘ulot jarayonida nazariy va tarixiy ma‘lumotlardan imkon boricha ko‘proq foydalanish, o‘quvchi-sozandaning ongini konkret misollarga asoslangan holda keng, nazariy tasavvur va tushunchalar bilan boyitib borish shu prinsipning asosini tashkil qiladi.

O‘quvchi-sozandalarning musiqa materiali bilan ishlashida ularning mustaqillik hamda tashabbuskorligini to‘la ishga solish - to‘rtinchi prinsip mazmuni tashkil etadi. Bu prinsipning mohiyati shundagi dars jarayonida o‘quvchilarning mustaqilligi hamda tashabbuskorliklari natijasida ularning rivojlanishlari ta‘minlanadi.

Musiqa ijrochiligi ta‘limi yuqorida ko‘rib chiqilgan prinsiplarga asoslanganda o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatini rivojlantirishni ta‘minlaydi.

**«Чолғу ансамбли» фани бўйича янги педагогик  
технологиялар билан ўтказилган дарс ишланмаси  
Мавзу: Ўзбек халқ куйи «Наврўзи ажам»**

<b>Талабалар сони</b>	30 та.
<b>Вақти</b>	6 соат.
<b>Дарс шакли</b>	Амалий.
<b>Машғулот режаси</b>	1.«Наврўзи ажам» куйи ижроси устида ишлаш. 2. Ижро жараёнида «Интонация» технологияларидан фойдаланиб мукаммал куйлашга эришиш.
<b>Машғулот мақсади</b>	1. Ўзбек халқ куйи «Наврўзи ажам»ни CD мусиқий мажмуаси орқали тинглаб ўргатиш. 2. «Замзама» технологияси орқали нола, безаклар ижросини шакллантириш. 3. Ансамблда ижро кўникмаларини шакллантириш устида ишлаш.
<b>Ўқитувчи вазифаси</b>	1. орқали миллий куйлаш малакаларини шакллантириш. 2. CD, DVD, MP3 дисклардан кенг куйлашда фойдаланиб беришга эришиш. 3. Қизлар овозидаги анъанавий ижро услубини шакллантириш
<b>Ўқув натижаси</b>	1. «Замзама», «Интонация», «Медиум» технологиялари воситасида миллий ижро кўникмалари шакллантирилади.

	<p>2. Мусикий ёзувлардан фойдаланган ҳолда, амалий ижродан мукамалликка эришиш.</p> <p>3. «Медиум» технологиясида ўрта регистр безаклари устида ишлаш.</p>
<b>Ўқитишнинг усул ва техникаси</b>	Намунавий ва мусикий дисклар орқали ижро, суҳбат.
<b>Ўқитиш воситалари</b>	Мусика асбоби, мусикий дисклар, аудиумагнитофон, DVD плейери.
<b>Ўқитиш шакли</b>	Амалий ижро.
<b>Ўқитиш шарт-шароитлари</b>	Визуал кабинет, техник воситалар.
<b>Мониторинг ва баҳолаш</b>	Амалий ижрони танлаш, савол-жавоб.

**«Чолғу ансамбли» фандиан  
Ўзбек халқ куйи «Наврўзи ажам»**

**ТЕХНОЛОГИК ХАРИТА**

<b>Фаолият боскичлари</b>	<b>Фаолият мазмуни</b>	
<b>1-боскич Кириш 20</b>	<b>Ўқитувчи</b>	<b>Талаба</b>
	1. Техник машқларидан фойдаланиб шакллантириш. 2. Ижрочилик жихатлари, маънавий комиллик, камтарлик, тавозе хақида эркин суҳбат уюштириш.	1. Чолғу ижроси бўйича кўникмалар шакллантирилади. 2. Ижрочилик жихатлари - мукамал ижро, хулқ-одоб, тавозе, комиллик хақида ижобий фикрларга эга бўлиш.
<b>2-боскич Асосий бўлим 50</b>	<b>Ўқитувчи</b>	<b>Талаба</b>
	1. Миллий ижро услубларини шакллантирган ҳолда янги мавзунини ўргатиш. 2. «Безак» технологияси орқали ижрода миллий ижро малакаларини шакллантириш устида ишлаш.	1. Миллий нола ва безаклар билан янги мавзунини ўрганиш. 2. Технологиялар воситаси орқали «Наврўзи ажам» куйинини ижро этиш. 3. Ансамбль ижросида мукамаллик устида ишлаш.
<b>3-боскич Якуний боскич 10</b>	<b>Ўқитувчи</b>	<b>Талаба</b>
	1. «Наврўзи ажам» куйини бўйича таҳлилий хулосалар чиқариш. 2. Талабалар ижросини баҳолаш. 3. Мустақил ишлаш вазибалари берилди.	1. Чолғу ижроси бўйича малакаларини эгаллаш. 2. Асарни мукамал ижро этиб бериш. 3. Янги машғулот учун мустақил ишлашга вазибалар олади.

**Илова:** «Безак» технологияси. Мазкур технология ўзбек амалий санъатидан олинган бўлиб қадимги Хива, Бухоро, Самарқанд



минораларида ўз салобати, кўрки билан дунёга маълум ва машхур бўлиши ва ўз чиройи билан бўлгани каби кошинлардаги ҳар бир нақш ва безаклар қўли гул меъмор ва наққош усталарнинг меҳнат самараси эканлигини ҳис этамиз.

Ҳар бир халқ ашуласи Хива, Бухоро, Самарқанд миноралари салобати билан бастлаша олишини ижро жараёни орқали кўришимиз мумкин.

Булар: нолиш, титратиш, товушни чайкатиш, нағмапардоз, нағмасоз, нағмаовоз каби иборалар билан аталиб келинади.

Нолиш. Кўшикнинг бир бўлагини безак бериб ифодалаш, яъни товушга ижро вақтида ҳам дизез, ҳам бемоль белги қўйиб куйланади:

«Ля» - «Ля #» - «Ля b» - «Ля» ёки  
 «Ля» - «Ля #» - «Ля #» - «Ля» ёки  
 «Ля» - «Ля b» - «Ля b» - «Ля» ёки  
 «Ля» - «Ля b» - «Си» - «До b» - «Си» - «Ля» ва ҳоказо.

Титратиш. Куйлаш жараёнида ҳар бир товуш сокин ҳолдан титратиш ҳолатига ўтказилади, яъни:

«Си» - «До #» - «Си» - «До #» - «Си» - «До #» - «Си».

Сокин ҳолда,  $\longrightarrow \longrightarrow \longrightarrow$ .

Титратиш,  $\blacktriangle \blacktriangledown \blacktriangle \blacktriangledown \blacktriangle \blacktriangledown \blacktriangle \blacktriangledown \blacktriangle \blacktriangledown \blacktriangle \blacktriangledown$  бўлгани каби.

Титратиш - куйлашда оҳангда жозиба пайдо бўлади, ижро сифати ошади.

Товушни чайкатиш. Пиёладаги сувни чайкатгани каби ҳаракатга келтириб турилади:

«До» - «Ля» - «Соль #» - «Ля» - «Соль #» ва ҳоказо.  
 Ля            Ля            Ля            Ля            Ля            Ля  
   ↓            ↓            ↓            ↓            ↓            ↓  
 Соль        Соль        Соль        Соль        Соль        Соль

**«Чолгу ансамбли» фани бўйича янги педагогик технологиялар билан ўтказилган дарс ишланмаси**  
**Мавзу: «Дугоҳ» мақомидан - «Сароҳбори Дугоҳ»**  
**2-таронаси мавзуси бўйича амалий машғулотларнинг технологиясининг модели.**  
**(Мустақил таълим).**

Талабалар сони	4 та.
----------------	-------

<b>Вақти</b>	4 соат.
<b>Дарс шакли</b>	Мустақил таълим.
<b>Машғулот режаси</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. «Фарғона-Тошкент» ашулачилик мактаби намуналаридан тароналар ижро этиш.</li> <li>2. «Сарохбори Дугоҳ» 2-таронасининг жонли ва диск варианты орқали ижро қилиш.</li> <li>3. Қизлар овозидаги «Медиум» технологияси устида ишлаш.</li> </ol>
<b>Машғулот мақсади</b>	1. Анъанавий куйлаш бўйича ижрочилик технологияларини шакллантириш.
<b>Ўқув натижаси</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. «Фарғона-Тошкент» ашулачилик мактаби йўналиши шакллантирилади.</li> <li>2. Асардаги нола, безак ва кочиримлар ижроси устида ишлаб, куйлаш йўлга қўйилади.</li> <li>3. Қизлар овозидаги «Акаде-</li> </ol>

	мик услуб»дан «Анъанавий услуб»га ўтиш шакллантирилади.
<b>Ўқитишнинг усул ва техникаси</b>	Визуал суҳбат ва ижро.
<b>Ўқитиш воситалари</b>	Музыка асбоби, танбур, дутор, тор, рубоб, дилрабо, доира, CD, MP3 дисклар, телевизор, DVD плейер.
<b>Ўқитиш шакли</b>	Якка тартибда ижрочилар билан ишлаш, ноанъанавий таълим.
<b>Мониторинг ва баҳолаш</b>	Ижронини текшириш, академ концерт.

**«Чолгу ансамбли» фани бўйича  
«Дугоҳ» макомидан - «Сароҳбори Дугоҳ» 2-таронаси  
мавзуси бўйича амалий машғулотларнинг  
технологиясининг модели.  
(Мустақил таълим).**

### ТЕХНОЛОГИК ХАРИТА

Фаолият босқичлари	Фаолият мазмуни	
1-босқич	Ўқитувчи	Талаба

<b>Амалий машғулотга кириш 10</b>	1. Овоз созлаш. 2. Қизлар овозидаги миллий безаклар устида ишлаш. 3. Болалар овозидаги миллий безаклар устида ишлаш.	1. Овоз созлаш технологиялари. 2. Қизлар овозидаги миллий безакларни ўрганиш. 3. Болалар овозидаги миллий безакларни шакллантириш.
<b>2-босқич Асосий мавзу муҳокамаси 25</b>	<b>Ўқитувчи</b> 1. «Сарохбори Дугоҳ» 2-таронаси ижроси технологияси устида ишлаш. 2. «Медиум» технологияси орқали қизлар овозидаги ижрочилик усули устида ишлаш. 3. Асарнинг дунаسر, авж пардалари устида ишлаш.	<b>Талаба</b> 1. «Сарохбори Дугоҳ» 2-таронаси ижроси технологиясини қуйлаш. 2. Қизлар овозида безак ва нолалар ижроси шакллантирилади. 3. Дунаسر, авж пардалар устида ишланади.
<b>3-босқич Баҳолаш 10</b>	<b>Ўқитувчи</b> 1. Қуйлаш малакаларини таҳлил қилиш, таккослаш, якуний хулоса бериш. 2. Баҳолаш.	<b>Талаба</b> 1. Асарнинг мукамал ижросига эришиш. 2. Анъанавий қуйлаш малакалари ҳақида назарий ва амалий кўникма ва малакаларга эга бўлиш.

**Илова: «Медиум» технологияси.** Медиум - ашулачи аёлларнинг ўрта товушидаги мукамал ижроси.

Мазкур технологияда хотин-қизлар товушидаги ўрта бўғин (регистр) товуш хусусиятини шакллантиради.

Маълумки, хотин-қизлар товушида ўрта товуш ислохотлар талаб қилинадиган, эътибордан четда қолдирмайдиган бўғин ҳисобланади.

Қўшиқнинг даромад ва фурувард қисми ўта мураккаб қисмлар бўлиб, хотин-қизлар мазкур ҳудудларда «Интонация» жихатидан ноаниқ ва товуш баландлигида нотўғри куйлаш ходисаларини учратиш мумкин.

Шунинг учун «Медиум» орқали куйлаш диапазони устида кўпроқ иш олиб бориш талаб этилади.

Асарнинг даромад қисми 4-5 поғона юкоридан куйланади, натижада овоз сифати яхши бўлиб, матн сўзлари аниқ, раво эшитилади. Бу бўғинда асарда талаб этилган нола ва безаклар устида ишлаш имконияти кўпроқ бўлади.

**«Чолгу ансамбли» фани бўйича янги педагогик технологиялар билан ўтказилган дарс ишланмаси  
Мавзу: «Уд» созининг келиб чиқиши, созланиши.**

<b>Талабалар сони</b>	30 та.
<b>Вақти</b>	4 соат.
<b>Дарс шакли</b>	Амалий, қисман маъруза.
<b>Машғулот режаси</b>	1. «Сарохбори Дугоҳ» 2-таронаси, «Кўрмадим» қўшиқлари ижроси орқали куйлаш технологияларидан «Ишкам-

	<p>би», «Бинниги», «Гуллиги», нағмаовоз, нағмапардоз кўникмаларини эгаллаш.</p> <p>2. «Уд» сози тарихи ҳақида маърузали билимлар бериш.</p> <p>3. «Уд» созида ижро қилинган мусиқий ижроларни тинглаш.</p>
<b>Машғулот мақсади</b>	<p>1. Куйлаш технологияларини шакллантириш мақсадида турли усуллардан фойдаланиш (якка ижро, жамоавий ижро).</p> <p>2. «Уд» созининг маъноси, «Уд» ҳақидаги қадимий ривоят «Фисогурс» ҳақида сўзлаб бериш, «Уд» турлари ҳақида, «Абжад» тартиби ҳақида тушунча бериш.</p> <p>3. «Уд» созида ижро этилган мумтоз куйлардан намуналар тақдим этиш.</p>
<b>Ўқитувчи вазифаси</b>	<p>1. Анъанавий услубда овоз созлаш машқларидан фойдаланиш.</p> <p>2. Шарқ мусиқа маданияти тарихи, «Уд» сози ҳақида кенг маълумот бериш.</p> <p>3. CD, DVD, MP3 дискларидан фойдаланиб, мавзуни мустаҳкамлаш.</p>
<b>Ўқув натижаси</b>	<p>1. Нола, безак ва қочиримлар билан асарларни куйлаш имконияти яратилади.</p> <p>2. Мусиқа маданияти тарихи, қадимий созлардан «Уд» сози</p>

	хақида билимлар эгалланади. 3. Мавзу хақидаги билимлар, муסיқий ижролар ёрдамида мустаҳкамланади.
<b>Ўқитишнинг усул ва техникаси</b>	Янги технологиялардан фойдаланиб машғулот ўтказиш.
<b>Ўқитиш воситалари</b>	Муסיқавий чолғу асбоби, муסיқий дисклар, ауди- магнитофон.
<b>Ўқитиш шакли</b>	Амалий ижро.
<b>Ўқитиш шарт-шароитлари</b>	Техник жихозланган ауди- тория, муסיқий дисклар.
<b>Мониторинг ва баҳолаш</b>	Саволнома, тестлар ва амалий ижрони тинглаб таҳлил қилиш.

**«Чолғу ансамбли» фанидан  
«Уд» созининг келиб чиқиши, созланиши.**

### ТЕХНОЛОГИК ХАРИТА

<b>Фаолият босқичлари</b>	<b>Фаолият мазмуни</b>	
<b>1-босқич</b>	<b>Ўқитувчи</b>	<b>Талаба</b>

<b>Кириш 20</b>	<p>1. Анъанавий ижро-чилик мактаби намуналаридан овоз созлаш технологияси устида ишлаш.</p> <p>2. Шарқ мусиқа маданияти тарихидан суҳбат - тест ўтказиш.</p> <p>3. «Уд» сози ҳақида маълумот бериш.</p>	<p>1. Овоз созлаш машқлари орқали нола, безак технологияларидан маълумот ва кўникмаларга эга бўладилар.</p> <p>2. Шарқ мусиқа маданияти тарихидан билимлар эгалланади.</p> <p>3. «Уд» сози ҳақида янги билимлар эгалланади.</p>
<b>2-босқич Асосий бўлим 50</b>	<b>Ўқитувчи</b>	<b>Талаба</b>
	<p>1. «Уд» сози ҳақида афсона ва ҳақиқат. «Уд» созининг турлари 4 та торлидан иборат:</p> <p>1-тор. Бам.</p> <p>2-тор. Маслас.</p> <p>3-тор. Масна.</p> <p>4-тор. Зир ҳақида маълумот бериш.</p> <p>Аш-Шерозий ва А.Жомийларнинг рисолаларида «Уд» ҳақидаги фикрлари, XIII-XV асрлардаги товуш системасининг асоси «Уд» созидан олинганлиги, пардалар сонининг 8 тадан иборат эканлиги, уларнинг номлари ҳақида маълумот бериш.</p> <p>2. «Сарохбори Дугоҳ» 2-таронаси ижроси устида ишлаш.</p>	<p>1. Янги мавзу «Уд» сози ҳақида назарий билим ва кўникмаларга эга бўладилар.</p> <p>2. Амалий ижрода «Сарохбори Дугоҳ» 2-таронаси ашуласи устида ишлайдилар.</p> <p>3. Ўтилган янги мавзу бўйича суҳбат, тест саволларига оғзаки жавоб берадилар.</p>
<b>3-босқич</b>	<b>Ўқитувчи</b>	<b>Талаба</b>



<p><b>Якуний босқич 10</b></p>	<p>1. Анъанавий ижро-чилик технологиялари-ни ўзлаштириш бўйича баҳоланадилар.</p> <p>2. Шарқ мусиқа мада-нияти тарихидан суҳ-бат, тест ўтказилади.</p> <p>3. «Уд» сози ҳақидаги янги маълумотлар бўйича билимлар аниқ-ланади.</p> <p>4. Мустақил ишлаш учун топшириқлар бе-рилади.</p>	<p>1. Анъанавий ижро-чилик бўйича куйлаш малакаларини намойиш қиладилар.</p> <p>2. Мавзуга оид суҳбат, тест саволларига жавоб берадилар.</p> <p>3. Янги мавзуга оид оғзаки саволларга жа-воб берадилар.</p> <p>4. Мустақил машғулот-ларга янги вазифалар оладилар.</p>
--------------------------------	--	--

**Илова: «Суҳбат, тест» технологияси.** Талабалар мазкур мавзулар бўйича берилган тест саволларига оғзаки жавоб берадилар:

1. Қадимги Шарқда қайси олимни араблар «Муаллими Соний» деб атаганлар?

- А. Абу Али ибн Сино.
- \*Б. Абу Наср ал-Фаробий.
- С. Ал-Хоразмий.
- Д. Ал-Урмавий.

2. Мусиқага оид ёзма манбалар қачон куйдирилиб, йўқотиб юборилган?

- А. VII-VIII асрларда.
- Б. VII-IX асрларда.

С. VII-X асрларда.

\*Д. VII-XI асрларда.

3. Шарқда қайси олимлар мусиқа фани тараққиётига катта ҳисса қўшган эдилар?

- А. Жомий, Навоий, Кавкабий.
- \*Б. Ал-Фаробий, ибн Сино, ал-Хоразмий.
- С. Урмавий, Жомий, Навоий.
- Д. Ибн Зайла, ал-Киндий, Урмавий.

4. Абу Наср ал-Фаробий қачон таваллуд топган?  
 А. 860 йилда.  
 Б. 870 йилда.  
 С. 880 йилда.  
 \*Д. 871 йилда.
5. Абу Али ибн Сино (980-1037) ўзининг қайси рисоласида мусиқани рухий касалликларга «Ишфо дастури» сифатида тавсия этган?  
 А. Донишнома.  
 Б. Ишфо китоби.  
 \*С. Қонуни фит - тибб.  
 Д. Нажот китоби.
6. Мусикий атамаларда нағма неча хил бўлган?  
 \*А. 2 хил.  
 Б. 4 хил.  
 С. 6 хил.  
 Д. 3 хил.
7. Шарқда мусикий атамалар қандай номланган?  
 \*А. Нағма, Бўъд, Жинс, Жамъ (Алхон).  
 Б. Бўъд.  
 С. Жинс, 4 поғона - 5 поғона, Тетрохорд, Пентохорд.  
 Д. Жамъ (Алхон).

**«Чолгу ансамбли» бўйича янги педагогик технологиялар  
 билан ўтказилган дарс ишланмаси  
 Мавзу: «Уд» созининг келиб чиқиши, созланиши.  
 (Мустақил таълим)**

<b>Талабалар сони</b>	4 та.
<b>Вақти</b>	4 соат.

<b>Дарс шакли</b>	Мустақил таълим.
<b>Машғулот режаси</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Анъанавий ижрочилик услублари ёрдамида овоз созлаш технологиялари билан ишлаш: «Сайқал», «Жонли ижро» технологияси.</li> <li>2. «Сарохбори Дугоҳ» 2-таронаси ижросида «Авж» ва «Зебо пари» қисмлари устида ишлаш.</li> <li>3. Ашулачилик мактаби ҳақида назарий билимлар бериш.</li> </ol>
<b>Машғулот мақсади</b>	Машғулот режаси асосида билим, кўникма ва малакаларни шакллантириш.
<b>Ўқитувчи вазифаси</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Талабалар билан якка тартибда анъанавий овоз созлаш машқлари бўйича кўникмаларни шакллантириш.</li> <li>2. Янги технологиялар билан ижро намуналарини такомиллаштириш.</li> <li>3. «Уд» сози ҳақидаги назарий билимларни онгига сингдириш.</li> </ol>
<b>Ўқув натижаси</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Якка ижро бўйича анъанавий куйлаш малакалари шакллантирилади.</li> <li>2. Машғулот жараёнида янги технологик ўқув жараёнлари шакллантирилади.</li> <li>3. «Уд» сози ҳақидаги янги назарий билимлар талабалар томонидан ўзлаштирилади.</li> </ol>

<b>Ўқитишнинг усул ва техникаси</b>	Амалий, намунавий, визуал машғулот ўтказиш.
<b>Ўқитиш воситалари</b>	Мусика асбоби, DVD, CD, MP3 мусиқий дисклар, аудимагнитофон, плейер.
<b>Ўқитиш шакли</b>	Ноанъанавий ўқитиш ва технологик таълим.
<b>Мониторинг ва баҳолаш</b>	Талабалар фаоллиги, ижрони таҳлил қилиш, академ концерт.

**«Чолгу ансамбли» фани технологик харитаси  
«Уд» созининг келиб чиқиши, созланиши.  
(Муस्ताқил таълим).**

<b>Фаолият босқичлари</b>	<b>Фаолият мазмуни</b>	
<b>1-босқич</b>	<b>Ўқитувчи</b>	<b>Талаба</b>

<p><b>Амалий машғулотга кириш 10</b></p>	<p>1. Ижро мактаби ҳақида хронологик суҳбат, жонли ижрода тақдимот. 2. Анъанавий овоз созлаш машқларидан намуналар.</p>	<p>1. Ижрочилик мактаблари ҳақида кенг тушунча олинади. 2. Мумтоз ашулалар ёрдамида овоз созлаш машқлари бажарилади.</p>
<p><b>2-босқич Асосий мавзу муҳокамаси 25</b></p>	<p><b>Ўқитувчи</b></p> <p>1. «Сайқал», «Жонли ижро» технологиялари орқали куйлаш малакаларини шакллантириш. 2. «Уд» сози тарихи ҳақида назарий маълумот бериш. «Уд» сози торлари - бам, маслас, масна, зир, хадд. «Уд» пардалари ҳақида: 1-парда. Мутлак. 2-парда. Зоид. 3-парда. Мужаннаб. 4-парда. Саббоба.</p>	<p><b>Талаба</b></p> <p>1. Мазкур технологиялари ёрдамида куйлаш малакалари шакллантирилади. 2. «Уд» созининг келиб чиқиши тарихидан маълумотга эга бўлиш.</p>

**Илова:** «Сайқал» технологияси. Сайқал - товушни тебратиш дегани.

Бу технология куйлаш даврида ижрочидан бутун ва ярим ноталарни куйлаш чоғида товушни тебратиб туриши назарда тутилади:

«Ля» - «Си Ъ» - «Ля» - «Си Ъ» - «Ля» - «Си Ъ».

Мумтоз қўшиқ ижрочилигида нола ва безаклар беришда «Сайқал» ўзига хос хусусиятга эгадир.

**«Чолгу ансамбли» бўйича янги педагогик технологиялар билан ўтказилган дарс ишланмаси**  
**Мавзу: «Хуршид» ғазали, «Сегох» қўшиғи.**

<b>Талабалар сони</b>	20 та.
<b>Вақти</b>	6 соат.
<b>Дарс шакли</b>	Амалий.
<b>Машғулот режаси</b>	1. «Хуршид» ғазали, «Сегох» қўшиғи устида ишлаш. 2. Овоз созлаш машқларида «Безак», «Сайқал» технологияларидан фойдаланиш.

	3. Йигитлар овозидаги камчилик, товуш зарби, безаксиз куйлаш жараёнлари устида ишлаш.
<b>Машғулот мақсади</b>	<p>1. «Хуршид» ғазали, «Сегоҳ» кўшиғининг CD, MP3 дискидаги ёзув варианты ва жонли ижросидан фойдаланиш.</p> <p>2. «Безак», «Сайқал» технологияларидан фойдаланиб овоз созлаш машқларини ташкил этиш.</p> <p>3. Товуш зарби, хиссиз куйлаш жараёнлари устида жиддий иш олиб бориш.</p>
<b>Ўқитувчи вазифаси</b>	<p>1. «Сегоҳ» кўшиғининг ёзув ва жонли ижро вариантлари орқали асарни ўргатиш.</p> <p>2. «Сайқал», «Безак» технология элементлари билан овозни шакллантириш жараёни устида ишлаш: «Ля» - «Сиб» - «Ля» - «Соль#», «Ля» - «Си» - «Ля» - «Соль».</p> <p>3. Товушлар зарби, безакли ижрони шакллантиришда амалий ижрони намоёниш этиш ва намунавий ижро.</p>
<b>Ўқув натижаси</b>	<p>1. Мусикий ёзув ва жонли ижро орқали асарни мукамал ижро этишга эришиш.</p> <p>2. Мазкур технологиялар орқали куйлаш малакаларини шакллантириш. Ҳар бир ижро-чида мазкур кўникмаларни шакллантирилганлигини таҳ-</p>

	лил қилиш. 3. Товушлар зарби, безакли ижронини шакллантириш орқали «Сегоҳ» қўшиғида мукаммал ижрога эришилади.
<b>Ўқитишнинг усул ва техникаси</b>	Муסיкий дисклар ва намунавий ижро билан суҳбат.
<b>Ўқитиш воситалари</b>	Муסיка асбоби, муסיкий дисклар, аудиумагнитофон, DVD плейери.
<b>Ўқитиш шакли</b>	Амалий ижро.
<b>Ўқитиш шарт-шароитлари</b>	Визуал аудитория, техник жиҳозлар.
<b>Мониторинг ва баҳолаш</b>	Академ концерт, савол-жавоб.

**«Чолгу ансамбли» фанидан  
«Хуршид» газали, «Сегоҳ» қўшиғи.**

### ТЕХНОЛОГИК ХАРИТА

<b>Фаолият босқичлари</b>	<b>Фаолият мазмуни</b>	
<b>1-босқич</b>	<b>Ўқитувчи</b>	<b>Талаба</b>



<p><b>Кириш 20</b></p>	<p>1. «Безак», «Сайқал» технологиялари орқали овоз созлаш машқларида анъанавий куйлаш технологияларини шакллантириш.</p> <p>2. Ўзбек халқ кўшиқчилиги йўналишлари ва турлари ҳақида суҳбат ўтказиш.</p> <p>3. Йигитлар овозидаги «Безак», «Сайқал» куйлаш кўникмалари устида ишлаш.</p>	<p>1. «Безак», «Сайқал» технологиялари орқали овозни созлаш ва куйлаш малакаларини шакллантиришга эришиш.</p> <p>2. Ўзбек халқ кўшиқчилиги намуналари ва ижрочилик услублари ҳақида суҳбатда иштирок этиш.</p> <p>3. «Безак», «Сайқал» технологиялари орқали куйлаш малакаларини шакллантириш.</p>
<p><b>2-босқич Асосий бўлим 50</b></p>	<p><b>Ўқитувчи</b></p> <p>1. «Сегоҳ» кўшиғининг CD мусиқий дискидаги ёзув вариантини тинглаш ва куйлатиш.</p> <p>2. Ижродаги «Ним парда»лар устида ва нолалардаги <i>pianissimo</i> (pp), <i>mezzo piano</i> (mp), <i>subito piano</i> (fp) белгиларига хос қилиб куйлашни шакллантириш.</p> <p>3. Мукаммал ўрганилган асарларни куйлаб, ижрони таҳлил қилиб ўтиш.</p>	<p><b>Талаба</b></p> <p>1. «Сегоҳ» кўшиғини тинглаш ва куйлашни ўрганиш.</p> <p>2. Ижрочиликдаги нозик қочиримлар, овоз йўналишлари билан мустақил ишлаш.</p> <p>3. Мукаммал ўрганилган асарларни куйлаш ва ижрочилик малакаларини шакллантириш.</p>
<p><b>3-босқич</b></p>	<p><b>Ўқитувчи</b></p>	<p><b>Талаба</b></p>

<b>Якуний босқич 10</b>	1. Брейн-суҳбат ўтказиш орқали кўникма ва малака, билимларни таҳлил қилиш. 2. Академ ижро этиш орқали ижрони баҳолаш.	Мавзу юзасидан кўникма ва ижрочилик малакаларини намойиш этиш.
---------------------------------	--	--

**Илова: «Брейн-суҳбат» технологияси.**

1. Ўзбек миллий кўшиқчилигидаги ижрочилик мактаблари номларини айтиб бера оласизми?

Улар: 1 ... . 2 ... . 3 ... . 4 ... ва ҳоказо.

2. Достончилик мактабида «Ички овоз» ва «Ташқи овоз» ижрочилик йўналиши ҳақида нималарни биласиз?

Улар: 1 ... . 2 ... . 3 ... . 4 ... ва ҳоказо.

3. Анъанавий куйлаш малакалари ҳақида гапириб бера оласизми?

Улар қандай кўринишга эга?

Улар: ... .

4. Академ ижро билан анъанавий ижро ўртасида қандай фарқ бор?

Академ ижро бу - ... .

Анъанавий ижро бу - ... .

**«Чолгу ансамбли» фанидан ўтказилган дарс ишланмаси**

**Мавзу: «Хуршид» ғазали, «Сегоҳ» ашуласи.**

**(Муस्ताқил таълим).**

<b>Талабалар сони</b>	4 та.
<b>Вақти</b>	4 соат.
<b>Дарс шакли</b>	Мустақил таълим.
